

ОБРАЗОВАНИЕ, НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ

международный научный электронный журнал

*Выпуск журнала № 14
Часть-3_ Февраль 2023*

OPEN  ACCESS



ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ

международный научный электронный журнал

Февраль - 2023 год

ЧАСТЬ - 3



ICCI JOURNALS
MASTER LIST



<http://www.newjournal.org/>



Выпуск журнала № – 14
Часть-3_ Февраль –2023

PEDAGOGIKA FANINING ILMIY TADQIQOT METODLARI

Begdullaeva Dilnaz

Ajiniyoz nomidagi NDPI Pedagogika fakulteti

1-M kurs student

Annotatsiya. Ushbu maqolamda pedagogika fani, peadagogikaning asosiy funksiyasi, ilmiy tadqiqot metodlar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, pedagogika fanining ilmiy tadqiqot metodlari va uning turlariga alohida to'xtalib o'tilib, ularni amalda qanday qilib qo'llash bo'yicha tavsiyalar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: pedagogika, tarbiya, ilm-fan, ta'lim, ilmiy tadqiqot metodlar, psixologiya, sotsiologiya, fiziologiya, matematika, pedagogic kuzatish, suhbat, eksperiment, anketa.

Insonni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash xalqimizning azaliy orzusi bo'lib, ajdodlarimiz ma'rifat, ma'naviyat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o'rgatish ularni komillikka yetaklash yo'llari, qonun-qoidalarini muttasil izlaganlar. Bu esa pedagogika fanining maydonga kelishiga sabab bo'lgan. Chunki, insonning ma'rifatli bo'lishi va ma'naviy komillikka erishishi pedagogika fanining yetakchiligidida amalga oshiriladi. Ma'lumki, mamlakatimiz taraqqiyoti va kelajagi ta'lim-tarbiya sohasidagi sifat o'zgarishlari qilib yuqori samaradorlikka erishishga, ularning jahon ta'limi talablari bilan mosligi va amaliy hayotdagi o'mini qay darajada topayotganligiga bog'liq.

Pedagogika - tarbiyaning umumiyligi qonuniyatlari haqidagi fandir. Pedagogika - yunoncha, pais - bola, agogos - yetaklash - bola yetaklovchi ma'nosini anglatadi. Insonlarning ma'rifiy va ma'naviy barkamollikka munosabatlarining o'zgarib borishi natijasida pedagogika (bolani to'g'ri hayotga boshlash san'ati) fani xalq orasida o'z mavqeyiga ega bo'ldi. Shu tariqa insonni tarbiyalovchi fan sifatida pedagogika dunyoviy fanlar tizimi qatoridan alohida o'rin egalladi. Inson tarbiyasi haqidagi fikrlar, g'oyalar, qarashlar, qoidalar, qonunlar dastlab qissalarda, pandnomalarda, qadriyatnomalarda, yozma yodgorliklarda, xalq og'zaki ijodida, ilohiy va muqaddas kitoblarda asoslab berilgan bo'lsa, keyinchalik mustaqil fan tarzida o'z mavqeyini mustahkamladi. Pedagogika - hayot ilm-fan, doimo rivojlanayotgan va bir vaqtning o'zida asosiy. uning mavjudligi davomida uning ta'lim va jamiyat tarbiya jarayoni, uning rivojlanishi, har bir alohida bosqichi dolzarb talablariga ega. Bundan tashqari, jahon, ob'ektiv voqelikning qonunlar, shuningdek, pedagogik usullar yordamida tez-tez o'rganib anglaymiz.

Shuningdek, pedagogika - tarbiya haqidagi ta'limot, tarbiyalash san'ati, tarbiya insonni shakllantirishga qaratilgan muayyan tizimli faoliyat hamda ta'lim-

tarbiyaning mazmuni, shakli va metodlari haqidagi fan. Ya'niy tarbiya va ta'lism sohasiga tegishli bilimlar yig'indisi. Shaxsni tarbiyalash, o'qitish va shakllantirish pedagogikaning asosiy funksiyasi hisoblanadi. Shaxsni tarbiyalash pedagogikadagi asosiy tushuncha sanalib, oila va jamiyatning barkamol shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan birgalikdagi faoliyatini anglatadi. Tarbiya yordamida inson shaxsining ma'naviy jihatlarini qaror toptirish ko'zda tutiladi. Insonlar orasida yashash, hayotda turmush kechirish va faoliyat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisini o'zlashtirishga qaratilgan faoliyat o'qitish tushunchasini ifoda etadi.

Harbir fanning o`z tadqiqot metodlari bo`lganidek, pedagogika fanining ham o`z tadqiqot metodlari mavjud. Ilmiy va pedagogik usullari tadqiqotlar - bu shu fanning maxsus yo'llari, usullari va bir butun sifatida qabul dunyo ilmiy o'rganish, vositalari va imkon tadqiqotchi tomonidan duch muammoni hal qilish hisoblanadi. Pedagogika o'z mazmunini boyitish va yangilash maqsadida mavjud pedagogik hodisa hamda jarayonlarni uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan metodlari bilan o'rganadi. Shu ma'noda pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari deganimizda yosh avlodni tarbiyalash, bilim berish va o'qitishning real jarayonlariga xos bo'limgan ichki aloqa va munosabatlarni tekshirish, bilih metodlari, uslublari hamda vositalari majmuuni tushunamiz. Pedagogika o'qitish, bilim berish, tarbiyalash jarayonlarini va ularning mohiyatini quyidagicha o'rganishni nazarda tutadi:

1) ularning umumiy aloqasi, bir-birini taqozo etishi hamda o'zaro ta'sir jarayonida bolalarni o'qitish, tarbiyalash, fan, madaniyat, axloq va san'at, ta'lism-tarbiyaning qayerda amalga oshirilishidan qat'iy nazar uzviy aloqada bo'lishi;

2) ularning to'xtovsiz harakati, o'zgarishi va taraqqiy etish jarayonida vujudga keladigan o'qitish hamda tarbiyalash vazifalari, metodlarining o'zgarishi, hamma bolalarni bir xil andozada o'qitish va tarbiyalash mumkin emasligi;

3) bolalarning o'sishida ularning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, aqliy va xulqiy faoliyat, so'z va ish birligi mezonlariga tayanish;

4) bolalar kamolotiga ta'sir etuvchi an'ana, urf-odatlar, ular eskilik bilan yangilik, o'rtasida yuz beradigan nizolarni hisobga olish, o'zaro tanqid va hokazo.

Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari qanchalik mukammal, aqlga muvofiq, to'g'ri tanlansa ta'lism-tarbiya mazmunini yangilash va takomillashtirish shu darajada yaxshilanib, pedagogika fani ham boyib boradi. Pedagogik tadqiqot metodlari — bu ilmiy nazariyalarni qurilishi, bog'liqliklari, munosabatlari, qonuniy aloqalarini o'rnatish maqsadida ilmiy ma'lumotlarni olish yo'llaridir. Pedagogikada psixologiya, sotsiologiya, fiziologiya, matematika fanlaridan kirib kelgan metodlardan tashqari pedagogikaning o'zini metodlari ham keng qo'llaniladi. Biz pedagogikani ilmiy tadqiqot metodlari deganda, yosh avlodni ta'limi, tarbiyasi, rivojlanishi jarayonlariga

xos bo‘lgan ichki aloqa va munosabatlarni tekshirish hamda ular to‘g‘risidagi ma’lumotlarni olish yo‘l va usullarni tushunamiz.

Pedagogik tadqiqotlarni tashkil etishda umumnazariy metodlar: analiz, sintez, taqqoslash, induksiya, deduksiya, mavhumlashtirish, umumlashtirish, konkretlashtirish, modellashtirish; sotsiologik metodlar: anketa, intervju, reyting; ijtimoiy psixologik metodlar: sotsiometriya, test, trening; matematik metodlar. Pedagogik tadqiqot metodlari nazariy va amaliy (empirik) kabi turlarga bo‘linadi. Tadqiqotning nazariy metodlari ilmiy faktlarni tizimlashtirish, kengaytirish, aniqlashni taqozo qilib, hodisalarni tushuntiradi va oldindan izohlab, olingan natijalarni ishonchhlilagini oshirib, mavhumdan aniq bilimlarga o‘tishni, turli tushuncha va farazlar orasidagi aloqadorliklarni o‘rnatib, asosiy va ikkinchi darajalilarini ajratadi. Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo‘nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berish tamoyillari, obyekti va subyektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usollaridir. Hozirgi vaqtda pedagogika fanining ilmiy tadqiqot metodlari: pedagogik kuzatish, so‘rash, o‘quvchilar faoliyati natijalari va o‘quv -tarbiya muassasalari hujjatlarini o‘rganish, pedagogik eksperiment, modellashtirish, ilg‘or tajribalarni o‘rganish va yoyish, sotsiologik, matematika va statistika materiallarini ishslash kibernetika, anketa, intervju olish va tasvirga olish singari metodlardan foydalilanadi.

Pedagogik kuzatish - murakkab va maxsus xususiyatga egadir. Bunda kuzatilayotgan pedagogik hodisaning mohiyatini ko‘ra bilish, o‘qituvchi va o‘quvchi harakatlarining o‘zaro aloqasi dialektikasini, ulardan har birining individualligini aniqlay olish lozim. Har pedagog kuzatuvchan bo‘lishi ayrim hodisa va dalillarning tavsilotlarini payqay olish, ularni tahlil qila bilish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim. Kuzatishlar biror maqsadga qaratilgan holda amaliy va sistemali yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, eng kerakli dalillarni, mazkur kuzatishdan o‘z vaqtida chiqarilgan pedagogik-psixologik xulosalarni hisobga olgan holda tashkil qilinsa, samarali bo‘ladi. Kuzatish ta‘lim-tarbiya jarayonini yaxshilash va takomillashtirish maqsadida olib borilishi mumkin. Masalan, o‘qitish jarayonida bolalarning qanday o‘sayotganligi, darslar jarayonlarida bilim berish va tarbiyalash vazifalari birligi qanday amalga oshirilayotganligi; fan asoslarini o‘rganishda o‘quvchilarnig tafakkuri qanday faollashayotganligini va boshqalar aniqlanadi.

Suhbat metodi. Ilmiy maqsadda olib boriladigan suhbatning aniq maqsadi, vazifasi, shakli va ularni o‘tkazish metodikasi mavjud. Suhbatlar individual, guruhli va jamoa turlari bor. Tadqiqotchi suhbat olib borishni va uni kerakli maqsadli tomonga yo‘naltira olishi g‘oyat muhimdir. Suhbat olib boruvchi quyidagi pedagogik qoidalarga rioya qilishi shart:

- a) suhbat savollarini oldindan belgilash;
- b) vaqt va joyini belgilash;
- v) suhbat ishtirokchilarini belgilash (soni, miqdori);
- g) qulay sharoit yaratib ochiq suhbatlashish;
- d) suhbatdoshga o‘z fikrini aytishga imkon berish;
- e) sergak va bachkana bo‘lmaslik;
- j) suhbatdosh haqida biografik ma‘lumotga ega bo‘lish;
- z) olingan materialni o‘z vaqtida ishlab chiqish va qo‘srimchalar qilish. Suhbatdan ilmiy xulosa chiqarish.

Maktab hujjatlarini tahlil qilish metodi. Maktab hujjatlarini tahlil qilish davlat qonunlarining amalda bajarilish darajasini, har bir xodimning faolligini aniqlash, ularning amaliy hayotdagi faoliyatidagi kamchilik va xatolarni aniqlashga va ularning topshirilgan ish uchun mas‘uliyatini oshirishga imkon beradi. Maktab hujjatlarini; rejalashtirishning barcha turlari; umumiy ta‘limga doir hisob va hisobot; dars jadvali; o‘quvchilar tarkibi soni; sifati; ta‘lim- tarbiya ishlarini taqsimlash; o‘quvchilarning delolari; sinf jurnallari; o‘quvchining kundalik daftarlari; buyruqlar daftarlari; pedagoglar kengashi qarorlari daftari; maktab smetasi; maktab pasporti; inventarlar daftari va hokazolar. Hujjatlarni tahlil qilishda o‘quvchilar kontingentining o‘sishi va kamayishi tavsifiga, bolalarning maktabga ketib qolishiga, ularning ayrimlari va sinf bo‘yicha o‘zlashtirish darajasiga, rag‘batlantirish va jazolash choralarini to‘g‘ri tashkil qilinishiga, maktab pedagoglar tarkibiga va maktabning o‘quv - moddiy bazasiga alohida e‘tibor berilishi kerak.

Bolalar ijodini o‘rganish metodi. O‘quvchilar ijodini hamda ularning turli faoliyatini (xatlari, kundaliklari, insho, bayon solgan suratlari, bajargan amaliy ishlari, namunalari, rejalarini va hisobotlarini) o‘rganishi va tahlil qilish pedagogik tadqiqotning samarali metodlaridan biridir. Bolalar ijodining ahamiyati shundaki, unda yosh avlodning tipik layoqati va xususiyatlari aniq ochib beriladi. Bu metodni qo‘llashdan asosiy maqsad hozirgi yosh avlod ijodining manbalari va faktorlarini chuqur bo‘lishiga hamda rivojlantirish va takomillashtirishning to‘g‘ri yo‘llarini ko‘rsatib berishga qaratilgandir. Bizda bolalar ijodi shakllari turlichadir: olimpiadalar, tematik konkurslar, maktab ko‘rgazmalari, turli xil musobaqalar, poxodlar, quvnoq startlar, ziyraklar va topqirlar, iste‘dodlar va hokazolar.

Eksperiment metod. Bu so‘z lotincha sinab tekshirib ko‘rish, ilmiy maqsadga qaratilgan tajriba ma‘nosini anglatadi. Ta‘lim-tarbiya ishlarida qo‘llaniladigan biror shakl, metod va vositaning foydalilagini aniqlash va tekshirish uchun o‘quv yurtlarida o‘tkaziladi. Eksperiment metodlari sharoitiga qarab turli xil qo‘llaniladi: Tabiiy eksperiment (yaratuvchi, ixtiro qiluvchi eksperimentlar), O‘quvchilarning ongliliginini yaratuvchi eksperiment.

Anketa metodi. Anketa - fransuzcha so‘z bo‘lib, “tekshirish” degan ma‘noni anglatadi. Bu metod o‘quvchilardan so‘rash metodi bo‘lib, u o‘quvchilar tarkibining sifati to‘g‘risida kerakli ma‘lumotlarni olish uchun, ularning fikrlari va qarashlarini aniqlash uchun, shuningdek kasbga yo‘llashni belgilash uchun ma‘lum bir shaklda o‘tkaziladi. Metodni qo‘llashda quyidagi talablarga amal qilish kerak:

1. Anketalar o‘quvchilarning pedagogik va ruhiy tavsifini tuzishning manbai va universal vositasiga aylantirmasligi kerak;
2. Anketalar juda katta va noaniq bo‘lmasligi kerak;
3. Anketani o‘tkazishda bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish va vaqt normada berilishi kerak va hokazo.

Xulosa qilib aytganda, pedagogika fani o‘z mazmun mohiyatini boyitishda, yangilashda mavjud pedagogik hodisa va nazariyalarni uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan usullari bilan o‘rganadi. Ushbu ilmnning ilmiy tadqiqot usullari deganda yosh avlodni tarbiyalash, bilimli qilish va o‘qitishning real jarayonlariga xos bo‘lgan ichki aloqa va munosabatlarni tekshirish, bilish yo‘llari, uslublari va vositalari majmui tushuniladi. Pedagogikaning ilmiy tadqiqot usullari qanchalik to‘g‘ri tanlansa ta’lim-tarbiya mazmunini yangilash va takomillashtirish shu darajada yaxshilanadi, pedagogika fani ham boyib boradi. Shuni ham aytishim joizki, pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo‘nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berish tamoyillari, obyekti va subyektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullaridir. Shaxsni umumiylar maqsadli rivojlantirish, shaxsni har tomonlama rivojlantirish bilan o‘zaro aloqadorlikda amalga oshadi. Albatta, pedagogikada ilmiy tadqiqot metodlarini samarali qo‘llash pedagogning pedagogic mahoratiga bog`liq. Harbir tadqiqot metodlarini uzviylikda qo‘llay olish zarur. Shu o‘rinda, A.S.Makarenko ta‘kidlaganidek, odam organizmi alohida-alohida holda rivojlanmaydi, balki barchalari o‘zaro uzviy bog‘liqlikda bir vaqtida rivojlanadi degan xulosasini aytishni joiz ko`rdim. Chunki, tarbiya jarayoni shaxsni har tomonlama rivojlantirishini ta‘minlamog‘i kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’. O’tanov. “Umumiylar pedagogika nazariyasi va amaliyoti”. Samarqand. 2016, 15-bet.
2. O’. J. Yo‘ldashev tahriri ostida. Umumiylar pedagogika. – T.: “Fan va texnologiya”, 2017, 27- bet.
3. O’. M. Asqarova, M. Xayitboyev, M. S. Nishonov. O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. – T: “Talqin”, 2008, 15-bet.
4. J. Hasanboyev, X.A.To`raqulov, I.Sh.Alqarov, N.O`Usmanov. Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi). Oliy o‘quv yurtiari uchun darslik. O‘zR Oliy va o‘rta-maxsus ta’lim vazirligi. - Toshkent: «Noshir», 2016.

YETUKLIK DAVRIDA SHAXS RIVOJLANISHI HAMDA YETUKLIK DAVRI INQIROZLARI.MUAMMO VA YECHIMLAR

Munisa Aybekovna Ibaydayeva

O'razgul Jangabaevna Yeshmuratova

Ruxsora Ravshanbekovna Qalandarova

Boshlang'ich ta'lif fakulteti 2-bosqich talabasi

Gulbanu Amangeldievna Turganbaeva

Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat Pedagogika Instituti

Pedagogika fakulteti 3-bosqich talabalari

«Shaxsning yetukligi motivatsiyasining funksional avtonomligi bilan
belgilanadi»

Gordon Olport

Annotatsiya: Maqolada yetuklik davri hamda uning yetakchi xususiyatlari, shaxs yetukligi,yetuklikning yuqori darajalari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Akmeologiya, psixologik yetuklik, Gordon Olport, shaxs nazariyalari.

Yetuklik-hayot faoliyatining eng ijtimoiy faol va mahsuldor davridir,u kattalikning shunday davriki unda shaxs va intellekt rivojlanishining eng yuksak darajasiga erishiladi.Qadimgi greklar bu yoshni va ruh holatini «akme» deb atashgan,akme so'zi cho'qqi oliy bosqich gullagan davr degan ma'nolarni anglatadi.Normal odam yetuklik davrida jismonan,ma'nan shakllanib bo'lgan bo'ladi hamda ko'plab yutuqlarga,tajribalarga ega bo'ladi.

Psixologik bosqich sifatida yetuklik ontogenezdagi nisbatan uzoq davom etadigan davrlardan biridir.Yetuklikning 3 bosqichi ajratiladi:

-ilk yetuklik(yoshlik)

-o'rta yetuklik

-yetuklik(qarilik va keksayish)

Gumanistik psixologiya yetuk shaxsning o'z-o'zini namoyon qilishi jarayoniga katta ahamiyat berilgan.Maslouning fikricha o'z-o'zini namoyon qiladigan shaxslar elementar ehtiyojlarini qondirish bilan chegaralanib qolmaydi, haqiqat, go'zallik, yaxshilik kabi oliy qadriyatlarga intiladi. Tarixdan bizga ma'lumki buyuk rassom Leonardo da Vinci nafaqat buyuk rassom balki buyuk shifokor hamda san'atsevar,serqirra ijodkor olim bo'lgan.Ular o'z faoliyatlarida yuksak cho'qqilarga intiladilar. Yetuklik o'z-o'zini namoyon qilish uchun o'z ustida tinmay ishlashni talab

qiladigan jarayondir.Yetuklik davri shunday davrki inson bu davrda o‘z maqsadlarini mustaqil qo‘ya oladi hamda ularni bajara oladi,demoqchi bo‘lganimiz,yetuklik davrida insonda barcha resurslar yetarli bo‘ladi,yetarli bo‘lidan taqdirda ularni izlab topishga qo‘lga kiritishga yetarli kuchi hamda shijoati jo‘sh urgan bo‘ladi.Maqsadlarni amalga oshirishda insonga nafaqat kuch balki iroda ham zarur.Irodaviy harakatlarda har doim maqsad aniq bo‘ladi.Odam o‘z oldiga qo‘ygan maqsadidan kelib chiqadigan natijalarni ham oldindan tasavvur eta oladi.G.Olportning ta’kidlashicha, shaxsnинг yetukligi motivatsiyasining funksional avtonomligi bilan belgilanadi.Yetuklik davrida insonda g‘ayrat,kuch,shijoat kabi xislatlar bo‘ladi,yetuklik davridan keksalik davriga o‘tish jarayonida bu xislatlar nisbatan susayadi.Jismonan va ma’nан yetuk inson kelajakni to‘g‘ri taxmin qila oladi,o‘z oldiga maqsadlar qo‘ya oladi hamda maqsadlari tomon borishga kuch-quvvat yetadi.Yetuklikning bosqichlari turli olimlar tomonidan turlicha talqin qilingan. Yetuklik davrini birinchilardan bo‘lib davrlashtirgan Sh.Byuler o‘z-o‘zini aniqlashni asos qilib, yetuklikning beshta bosqichini ajratgan:

Birinchi bosqich (16-20 yosh) shaxsiy o‘z-o‘zini belgilashdan oldin keladi.

Ikkinci bosqich (16—20 yoshdan 25—30 yoshgacha) — urinib ko‘rish va izlash bosqichidir (kasb, umr yo‘ldosh va b.). Bu davrda hayotiy maqsadlar noreal bo‘lib, o‘zgarib turadi.

Uchinchi bosqich (25—30 yoshdan 45—50 yoshgacha) — yetuklik davri: inson hayotda o‘z o‘rnini topadi, oila quradi. 40 yoshlarda shaxs o‘zining hayotda erishgan natijalariga qarab o‘zini baholay boshlaydi.

To‘rtinchi bosqich (45—50 yoshdan 65—70 yoshgacha) — qartayayotgan inson, kasbiy faoliyatning tugashi, maqsadlar qo‘yish va faol o‘z-o‘zini belgilashning yo‘qolishi.

Beshinchi bosqich (70 yoshdan keyin) — qari inson: o‘tmishni eslash va tinchlikni xohlash.

Yetuklik davrida rivojlanishning ijtimoiy vaziyati insondan ishlab chiqarish sohasiga,mehnat faoliyati sohasiga,o‘z oilasini qurish va farzandlar tarbiyalashga faol kirishishni talab etadi.Yetuklik davrida rivojlanishning ijtimoiy vaziyati ichki tomonidan mustaqillikka intilish ma’suliyat hissining kuchayishida ifodalanadi. O‘z hayoti va yaqinlarining hayoti uchun shaxsiy ma’suliyatni anglash,bu ma’suliyatni qabul qilishga tayyorlik yetuklik davridagi rivojlanish ijtimoiy vaziyatning asosiy kechinmasidir.Yetuklik davrida faoliyatning asosiy yetakchi turi mehnat faoliyati hisoblanadi.

N.A.Ribnikov 1920-yillarda katta odamlarning rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganadigan yosh psixologiya sohasini akmeologiya deb atagan.Akmeologiya insonni individ sifatida,shaxs sifatida faoliyatning talantli subyekti sifatida, individuallik sifatida inson,fuqaro,turmush o‘rtoq do‘st sifatida shakllanish sharoitlari yo‘llari va

usullari orqali o‘rganadi. Yetuklik davridagi inqirozlarning bolalik davridagi inqirozlardan farqlari quyidagilarda kuzatiladi:

— yetuklik davrida asosiy faoliyat turi doimiy bo‘ladi (mehnat, ishlab chiqarish, oila, muloqot va b.), bolalik davrida esa yetakchi faoliyat doimiy ravishda o‘zgarib turadi;

— yetuk shaxs asosiy faoliyat turining ichida chuqur o‘zgarishlar ro‘y beradi;

— yetuklik davri inqirozlari uzoqroq vaqtda (7—10 yosh) paydo bo‘ladi, ma’lum bir xronologik yoshga bog‘lanmagan, ko‘proq ijtimoiy vaziyatga, hayotning shaxsiy sharoitlariga bog‘liq;

— inqirozlar orasidagi intervallarda rivojlanish tekis kechadi, xronologik chegaralar shartlidir;

— yetuklik davridagi inqiroz anglangan holda, yopiq kechadi, atrofdagilarga keskin namoyon qilinmaydi;

— inqirozdan chiqish, uni bartaraf etish shaxsning ichki faolligiga, uning o‘zigagina bog‘liq.

Normal inqirozlardan farqli ravishda anomal rivojlanishda ichki qaramaqarshiliklarni hal qilish uchun nuqsonli shakllardan foydalaniladi. Masalan, spirtli ichimliklarga berilish motivatsion va mazmunli intilishlarning o‘zgarishiga olib keladi. Ilk yetuklik davrida (18—25 yosh) psixik funksiyalarning kuchli rivojlanishi xos. Xotira, diqqat tafakkur konstruktiv, ijobiy siljishlar, cho‘qqilar kuzatiladi. Barqarorlashuv 33—35 yoshda kuzatiladi. 35 yoshgacha inson intellektual faoliyati funksional asoslarining bir butunligi davom etadi. 30—33 yoshda diqqat, xotira, tafakkur kuchli rivojlanadi, 40 yoshlarda ular birmuncha susayadi. 41—50 yoshda 36—40 yoshga nisbatan tafakkur ham birmuncha susayadi. Ko‘pchilik soha vakillari uchun 35—39 yosh ijodiy faollik uchun o‘rtacha maksimum yosh hisoblanadi. Aniqroq to‘xtaladigan bo‘lsak, matematik, fizik, ximik kabi aniq fanlarda ijodiy cho‘qqiga erishish 30—34 yosh, geolog, vrachlarda 35—39 yosh, psixolog, faylasuf va siyosatchilarda birmuncha kechroq 40—55 yoshlarda kuzatiladi. Kattalarda bilish funksiyalarining saqlanishiga qadriyatlar yo‘nalganligi katta ta’sir ko’rsatadi. Hayotning turli sohalarida yangilikka faol intilish, ma’lumotlarni izlash, erishilgan natija bilan cheklanmaslik, obrazli tafakkur rivojlanish darajasiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi. O‘z kasbiy mahoratini takomillashtirish, maxsus adabiyotlarga doimiy murojaat qilish verbal-mantiqiy, amaliy va obrazli tafakkurning rivojlanishiga olib keladi. 51—55 yoshda ham tafakkurning har xil turlarining, diqqat va xotiraning rivojlanishiga kasbiy faoliyatdagi bilishga faol intilish, bo‘sh vaqtida ham nimalarnidir o‘rganishga intilish ijobiy ta’sir qiladi. Kattalarning intellektual potensialini optimallashtirishning muhim omillari quyidagilardir: ma’lumoti darajasi (oliy, texnik, gumanitar, o‘rta maxsus va h.k.); ta’lim — individual va tashkiliy bilish jarayoni sifatida; kasbiy faoliyat turi; mehnat faoliyati xarakteri (aqliy zo‘riqishga ehtiyoj,

ijodiylikning mavjudligi) va b.Yetuk insonlar intellekti saqlanishi bilan bir qatorda uning strukturasida sifat jihatidan qayta o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. So‘zli matnlarni umumlashtirish ustunlik qiladi. Intellekt rivojlanishida yangi bo‘lishi mumkin bo‘lgan bosqich — muammoni o‘zi qo‘ya olishidadir.Uzoq muddatli xotirada verbal esga tushirish keksalik davrigacha o‘zgarmaydi, reaksiya tezligi, qisqa muddatli xotira, qayta esga tushirish birmuncha susayadi. Shunga qaramay kasbiy xotiraning takomillashishi mnemik funksiyalarning umumiyligi susayishi bilan mos kelmasligi mumkin.So‘nggi zamonaviy longityud tadqiqotlarda aniqlanishicha, yetuklik davridagi insonlarning kognitiv rivojlanishi tugallanmaydi, lekin kattalarning aynan qanday qobiliyatlari qanday qilib o‘zgarishi haqida umumiyligi fikrga kelinmagan. Bunda ayrim olimlar «dialektik tafakkur va mustaqil tanlangan pozitsiya va mas’uliyat» tushunchalaridan foydalanadilar, bunda intellekt sifat jihatidan qayta qurilishi nazarda tutiladi.Boshqa tadqiqotchilar esa turli yosh davrlaridagi murakkab vazifalarni hal qilish uchun intellektdan egiluvchan foydalanish va uni doimiy takomillashtirish haqida fikr yuritadilar.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlab o‘tish joizki yetuklik davri inson umrining eng muhim davrlaridan hisoblanadi.Yetuklik davrida shug‘ullanadigan faoliyatni biz bolalik hamda yoshlik davrlarida tanlaymiz.Yetuklik davri inson umrining eng muhim bosqichi,bu bosqichda biz muntazam mehnat bilan shug‘ullanamiz.Mehnat faoliyati esa keksalik hamda qarilik davridagi hayotimizning qanday kechishini belgilab beradi.Og‘ir mehnat psixik zo‘riqishlar haddan ziyod ishga sho‘ng‘ib ketish yetuklik davrining umrning gullagan pallasining ta’mini buzadi.Shu boisdan inson o‘z hayotini to‘g‘ri shakllantirishi,kun tartibini to‘g‘ri tashkillashtirishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Z.T.NISHANOVA,N.G.KAMILOVA,D.U.ABDULLAYEVA,M.X.XOLNAZAROVA "RIVOJLANISH PSIXOLOGIYASI PEDAGOGIK PSIXOLOGIYA" TOSHKENT-2018
2. F.I.XAYDAROV N.I.XALILOVA "UMUMIY PSIXOLOGIYA" Toshkent-2009

TRIGONOMETRIK TENGLAMALAR

*Rejabova Gulnoza Yuldashevna**Izboskan tuman 2-son kasb-hunar maktabi**Matematika fani o‘qituvchisi*

Annotasiya. Maqolada trigonometrik funksiyalarning kelib chiqishi tarixi haqida qisqacha tarixiy ma'lumotlar keltirilgan. Trigonometrik funksiyalarning davri, aniqlanish sohasi, trigonometrik ifodalarni yig'indidan ko'paytmaga o'tish formulalari keltirilib, ularga doir misollarni yechish yo'llari yoritilgan.

Kalit so'zlar: trigonometriya, funksiya, davr, trigonometrik yig'indi, aniqlanish sohasi, argument, tenglamalar bir jinsli, daraja pasaytirish.

Eramizdan oldingi asrlarda trigonometriya astronomiya, geodeziya va qurilish ehtiyojlari bilan bog'liq holda paydo bo'lgan, ya'ni u faqat geometrik xususiyatga ega bo'lib, asosan «akkordlar hisobi» ni ifodalagan. Vaqt o'tishi bilan ba'zi tahliliy fikrlar unga aralasha boshladi. XVIII asrning birinchi yarmida keskin burilish yuz berdi, shundan so'ng trigonometriya yangi yo'naliш oldi va matematik analizga o'tdi.

Tarixan trigonometrik tenglamalar va tengsizliklar maktab o'quv dasturida alohida o'rinn tutgan. Hatto yunonlar ham trigonometriyani fanlarning eng muhim deb hisoblashgan. Shuning uchun biz, qadimgi yunonlar bilan bahslashmasdan, trigonometriyani maktab kursining va umuman butun matematika fanining eng muhim bo'limlaridan biri deb hisoblaymiz.

Bir necha o'n yillar davomida maktab matematika kursining alohida fani sifatida trigonometriya mavjud emas edi, u asta-sekin nafaqat asosiy maktabning geometriya va algebrasida, balki algebra va matematik tahlilning boshlanishiga ham tarqaldi.

Trigonometrik tenglamalar maktab matematika kursining eng qiyin mavzularidan biridir. Trigonometrik tenglamalar planimetriya, astronomiya, fizika va boshqa sohalardagi masalalarni yechishda yuzaga keladi. Trigonometrik tenglamalar va tengsizliklar yildan-yilga markazlashtirilgan test vazifalari orasida ham topiladi.

Trigonometrik tenglamalarning algebraik tenglamalardan eng muhim farqi shundaki, algebraik tenglamalar chekli sonli ildizlarga ega, trigonometrik tenglamalar esa cheksiz yechimlarga ega, bu esa ildizlarni tanlashni ancha murakkablashtiradi. Trigonometrik tenglamalarning yana bir o'ziga xos xususiyati javob yozishning o'ziga xos bo'limgan shak lidir.

O'quv, ilmiy va uslubiy adabiyotlar asosida trigonometrik tenglamalar va tengsizliklarga oid asosiy nazariy ma'lumotlarni maktab matematika kursida

mavzularni taqdim etishda e'tibor berishingiz kerak bo'lgan umumiyl uslubiy qoidalari mavjud.

Bu ishning amaliy ahamiyati shundaki, undan maktab o'qituvchilari uchun trigonometriya darslarini rejalashtirish va o'tkazishda o'quv qo'llanma sifatida foydalanish mumkin.

Elementar trigonometrik tenglamalar $f(kx + b) = a$ ko'rinishdagi tenglamalar bo'lib, bunda $f(x)$ trigonometrik funksiyalar: $\sin x$, $\cos x$, $\operatorname{tg} x$, $\operatorname{ctg} x$ hisoblanadi. Elementar trigonometrik tenglamalar cheksiz ko'p ildizlarga ega.

Misol uchun quyidagi sonlar $\sin x = \frac{\sqrt{2}}{2}$ tenglamaning ildizi bo'la oladi;

$$x_1 = \frac{\pi}{4}, \quad x_2 = \frac{2\pi}{3}, \quad x_3 = \frac{7\pi}{4}, \quad x_4 = \frac{\pi}{4} + 2\pi$$

va h.k. Tenglamaning barcha ildizlari topiladigan umumiyl formula

$$\sin x = a, |a| \leq 1$$

$$x = (-1)^n \arcsin a + 2\pi n, n \in \mathbb{Z}$$

bilan beriladi.

Bu yerda n har qanday butun son qiymatlarni qabul qilishi mumkin, ularning har biri ushbu formuladagi tenglamaning ma'lum bir ildiziga mos keladi. Shuningdek, elementar trigonometrik tenglamalar hal qilinadigan boshqa formulalarda n parametr deyiladi. Ular odatda $n \in \mathbb{Z}$ deb yoziladi va shu bilan n parametri har qanday butun qiymatlarni qabul qilishi mumkin.

$\cos x = a, |a| \leq 1$ tenglama yechimlari quyidagi formula bo'yicha topiladi:

$$x = \pm \arccos a + \pi n, n \in \mathbb{Z}.$$

$\operatorname{tg} x = a$ tenglamaning yechimlari quyidagi formula orqali topiladi

$$x = \operatorname{arctg} a + \pi n, n \in \mathbb{Z}.$$

$\operatorname{ctg} x = a$ tenglamaning yechimlari quyidagi formula orqali topiladi

$$x = \operatorname{arcctg} a + \pi n, n \in \mathbb{Z}.$$

Elementar trigonometrik tenglamalarning ba'zi maxsus holatlariga alohida e'tibor qaratish lozim, bunda yechim umumiyl formulalardan foydalanmasdan yozilishi mumkin:

$$\sin x = 0, x = \pi n, n \in \mathbb{Z},$$

$$\sin x = 1, x = \frac{\pi}{2} + 2\pi n, n \in \mathbb{Z},$$

$$\sin x = -1, x = -\frac{\pi}{2} + 2\pi n, n \in \mathbb{Z},$$

$$\cos x = 0, x = \frac{\pi}{2} + \pi n, n \in \mathbb{Z},$$

$$\cos x = 1, x = 2\pi n, n \in \mathbb{Z},$$

$$\cos x = -1, x = \pi + 2\pi n, n \in \mathbb{Z},$$

$$\operatorname{tg} x = 0, x = \pi n, n \in \mathbb{Z},$$

$$\operatorname{tg} x = 1, x = \frac{\pi}{2} + \pi n, n \in \mathbb{Z},$$



$$\operatorname{tg} x = -1, x = -\frac{\pi}{2} + \pi n, n \in \mathbb{Z},$$

$$\operatorname{ctg} x = 0, x = \frac{\pi}{2} + \pi n, n \in \mathbb{Z},$$

$$\operatorname{ctg} x = 1, x = \frac{\pi}{4} + \pi n, n \in \mathbb{Z},$$

$$\operatorname{ctg} x = -1, x = -\frac{\pi}{4} + \pi n, n \in \mathbb{Z}.$$

Ushbu tenglamalarga alohida e'tibor berish kerak, chunki ular dan boshqa trigonometrik tenglamalarni yechishda foydalanish mumkin. O'quvchilarda eng oddiy tenglamalarning har birini yechish sxemalari bo'lsa yaxshi bo'ladi.

Davriylik

Trigonometrik tenglamalarni yechishda trigonometrik funksiyalar davri muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun o'quvchilar ikkita foydali teoremani bilishlari kerak:

Teorema. Agar $T f(x)$ funksiyaning bosh davri bo'lsa, T/k soni $f(kx + b)$ funksiyaning bosh davri hisoblanadi.

T_1 va T_2 funksiyaning davrlari $mT_1 = nT_2 = T$ bo'ladigan m va n natural sonlar mavjud bo'lsa, o'lchovli deyiladi.

Teorema. Agar $f_1(x)$ va $f_2(x)$ davriy funksiyalarda T_1 va T_2 taqqoslanadigan bo'lsa, u holda ular $f_1(x) + f_2(x)$ funksiyaning davri bo'lgan $mT_1 = nT_2 = T$ umumiy davriga ega bo'ladi.

Aniqlanish sohasi

Har qanday haqiqiy son birlik doiradagi nuqtaga mos keladi. Bu nuqtaning koordinatalari berilgan haqiqiy sonning kosinus va sinus qiymati hisoblanadi. Birlik doiraning istalgan uqtasining koordinatalarini har doim aniqlash mumkin bo'lganligi sababli, har qanday haqiqiy x uchun $\sin x$ va $\cos x$ ning mos qiymatini topish mumkin, ya'ni $y = \sin x$ va $y = \cos x$ x ning istalgan haqiqiy qiymati aniqlanadi.

$y = \operatorname{tg} x$ funksiyalarining aniqlanish sohasini belgilash orqali shuni k o'rsatish kerakki, agar $x = \pi/2 + \pi n$ bo'lsa, bu burchaklarning yon tomoni, tangens o'qi bo'ladi. Shuning uchun argumentning ushbu qiymatlari uchun $y = \operatorname{tg} x$ funksiyaning mos qiymatini belgilash mumkin emas.

Trigonometrik tenglamalarni ko'paytuvchilarga ajratib yechish usullari

Ko'paytuvchilarga ajratish usuli quyidagicha:

$$f(x) = f_1(x) f_2(x) \dots f_n(x), f(x) = 0$$

tenglamaning istalgan yechimi $f_1(x)$ tenglamalar to'plamining yechimi

$$f_1(x) = 0, f_2(x) = 0, \dots, f_n(x) = 0$$

hisoblanadi.

Qarama-qarshi tasdiq, umuman olganda, to'g'ri emas: ko'paytuvchilarga ajratishning har bir yechimi tenglamaning yechimi emas. Bu alohida tenglamalar

yechimlari $f(x)$ funksiyani aniqlash sohasiga kirmasligi mumkinligi bilan izohlanadi.

Bunday turdagи tenglamalarni yechishda algebraik ifodalarni ko'paytuvchilarga jratishning barcha ma'lum usullaridan foydalanish kerak. Bu umumiy omilni qavslash, guruhash, qisqartirilgan ko'paytirish va bo'lish formulalarini qo'llash.

Misol: Tenglamani yeching $\sin^2 2x - \sin 2x = 0$.

Yechish: $\sin 2x(\sin 2x - 1) = 0$,

$$\sin 2x = 0 \text{ va } \sin 2x - 1 = 0$$

$$x_1 = \frac{\pi n}{2}, n \in Z \text{ va } \sin 2x = 1,$$

$$x_2 = \frac{\pi}{4} + \pi n, n \in Z,$$

$$\text{Javob: } x_1 = \frac{\pi n}{2}, n \in Z ; x_2 = \frac{\pi}{4} + \pi n, n \in Z$$

Misol : Tenglamani yeching: $2\operatorname{ctg}3x\cos 2x + 4\cos 2x - \operatorname{ctg}3x - 2 = 0$.

Yechish:

$$(2\operatorname{ctg}3x\cos 2x - \operatorname{ctg}3x) + (4\cos 2x - 2) = 0,$$

$$\operatorname{ctg}3x(2\cos 2x - 1) + 2(2\cos 2x - 1) = 0,$$

$$(2\cos 2x - 1)(2\operatorname{ctg}3x + 2),$$

$$(2\cos 2x - 1) = 0 \text{ va } (\operatorname{ctg}3x + 2) = 0,$$

$$2\cos 2x = 1 \text{ va } \operatorname{ctg}3x = -2,$$

$$\cos 2x = \frac{1}{2} \text{ va } x_1 = \frac{1}{3}(\operatorname{arcctg}(-2) + \pi n), n \in Z.$$

$$x_1 = \pm \frac{\pi}{6} + \pi n, n \in Z$$

$$\text{Javob: } x_1 = \pm \frac{\pi}{6} + \pi n, n \in Z, x_2 = \frac{1}{3}(\operatorname{arcctg}(-2) + \pi n), n \in Z.$$

Trigonometrik ifodalarni yig'indidan ko'paytmaga o'tish formulalari

Trigonometrik tenglamalarni yechishda quyidagi formulalar ishlatiladi:

$$\sin x + \sin y = 2 \sin \frac{x+y}{2} \cdot \cos \frac{x-y}{2};$$

$$\sin x - \sin y = 2 \sin \frac{x-y}{2} \cdot \cos \frac{x+y}{2};$$

$$\cos x + \cos y = 2 \cos \frac{x+y}{2} \cdot \cos \frac{x-y}{2};$$

$$\cos x - \cos y = -2 \sin \frac{x+y}{2} \cdot \sin \frac{x-y}{2};$$

$$\operatorname{tg} x + \operatorname{tgy} = \frac{\sin(x+y)}{\cos x \cos y},$$

$$\operatorname{tg} x - \operatorname{tgy} = \frac{\sin(x-y)}{\cos x \cos y},$$

$$\operatorname{ctg} x + \operatorname{ctgy} = \frac{\sin(x+y)}{\sin x \sin y},$$

$$\operatorname{ctg} x - \operatorname{ctgy} = \frac{\sin(x-y)}{\sin x \sin y}.$$

Misol : Tenglamani yeching: $\sin 4x - \sin 6x = 0$.

Yechish: Trigonometrik funksiyalar ayirmasining formulasini qo'llaymiz va

biz quyidagilarni olamiz:

$$2 \sin \frac{4x-6x}{2} \cdot \cos \frac{4x-6x}{2} = 0$$

$$\sin(-x) = 0 \text{ va } \cos 5x = 0,$$

$$\sin x = 0, 5x = \frac{\pi}{2} + \pi n, n \in Z,$$

$$x_1 = \pi n, n \in Z \quad x_2 = \frac{\pi}{10} + \frac{\pi n}{5}, n \in Z;$$

$$\text{Javob: } x_1 = \pi n, n \in Z \quad x_2 = \frac{\pi}{10} + \frac{\pi n}{5}, n \in Z;$$

Trigonometrik funksiyalarning ko' paytmasini yig' indiga aylantirish orqali tenglamalarni yechish

Bir qator tenglamalarni echishda quyidagi formulalar qo'llaniladi:

$$\sin x \cdot \cos y = \frac{\sin(x-y) + \sin(x+y)}{2};$$

$$\cos x \cdot \cos y = \frac{(\cos(x-y) + \cos(x+y))}{2};$$

$$\sin x \cdot \sin y = \frac{(\cos(x-y) - \cos(x+y))}{2}$$

Misol : Tenglamani yeching: $2\sin 3x \cos 2x = \sin 5x$.

Yechish: Birinchi formuladan foydalanib, quyidagi tenglamani olamiz:

$$\frac{\sin(3x - 2x) + \sin(3x + 2x)}{2} = \sin 5x,$$

$$\sin x + \sin 5x - \sin 5x = 0,$$

$$\sin x = 0,$$

$$x = \pi n, n \in Z.$$

Javob : $x = \pi n, n \in Z$.

Tenglamalarni daraja pasaytirish formulalari yordamida yechish

Keng diapazondagi trigonometrik tenglamalarni yechishda darajani pasaytirish formulalari asosiy rol o'ynaydi:

$$\sin^2 x = \frac{1 - \cos 2x}{2};$$

$$\cos^2 x = \frac{1 + \cos 2x}{2};$$

$$\operatorname{tg}^2 x = \frac{1 - \cos 2x}{1 + \cos 2x}.$$

Ushbu formulalarni yaxshiroq o'zlashtirish va mustahkamlash uchun o'quvchilar bilan bir nechta tenglamalarni yechish kerak.

Misol : Tenglamani yeching: $4\cos^2 2x - 1 = \cos 4x$.

$$4 \cdot \frac{1 + \cos 4x}{2} - 1 = \cos 4x,$$

$$2 + 2\cos 4x - 1 = \cos 4x,$$

$$\cos 4x = -1 \Rightarrow 4x = \pi + 2\pi n, n \in Z.$$

Javob: $x = \frac{\pi}{2} + 2\pi n, n \in Z$.

Uchlangan burchak argumentli formulalar yordamida tenglamalarni yechish

Bir qator tenglamalarni yechishda uchlangan burchak argument formulalari qo'llaniladi:

$$\sin 3x = 3\sin x - 4 \sin^3 x;$$

$$\cos 3x = 4 \cos^3 x - 3\cos x;$$

$$\operatorname{tg} 3x = \frac{3\operatorname{tg} x - \operatorname{tg}^3 x}{1 - 3\operatorname{tg}^2 x};$$

$$\operatorname{ctg} 3x = \frac{\operatorname{ctg}^3 x - 3\operatorname{ctg} x}{3\operatorname{ctg}^2 x - 1}$$

Misol 11: Tenglamani yeching: $\cos 3x + 2 \cos x = 0$.

$$\cos x (4 \cos^2 x - 1) = 0 \Rightarrow \cos x (\cos 2x + \frac{1}{2}) = 0.$$

Javob: $x_1 = \frac{\pi}{2} + \pi k; x_2 = \pm \frac{\pi}{3} + \pi k$

XULOSA

Ushbu masalalar bo'yicha tegishli uslubiy adabiyotlar bilan tanishib chiqib, maktab algebra kursida trigonometrik tenglamalar va tongsizliklarni yechish qobiliyati va ko'nikmalari juda muhim bo'lib, ularni rivojlantirish matematika o'qituvchisidan katta kuch talab qiladi degan xulosaga kelish mumkin.

O'qituvchining o'zi trigonometrik tenglamalar va tongsizliklarni yechish bo'yicha ko'nikma va malakalarinini rivojlantirish usullarini yetarli darajada bilishi shart.

Shubhasiz, faqat zamonaviy darsliklar mualliflari tomonidan taklif qilingan vositalar va usullardan foydalangan holda belgilangan maqsadga erishish deyarli mumkin emas. Bu o'quvchilarining individual xususiyatlari bilan bog'liq. Darhaqiqat, ularning trigonometriya bo'yicha asosiy bilimlari darajasiga qarab, turli darajadagi tenglamalar va tongsizliklarni o'rganish uchun imkoniyatlar qatori quriladi.

Shuning uchun o'qituvchining oldida ko'rib chiqilayotgan muammolarni hal qilish usullari asosida o'rganilayotgan materialning g'oyalarini aniqlash, ularni keyinchalik umumlashtirish va tizimlashtirish uchun juda qiyin muammo turibdi. Bu nazariyani o'quvchilarining ongli ravishda o'zlashtirishi uchun ham, matematik muammolarni hal qilishning bir qancha umumiyl usullarini o'zlashtirish uchun ham muhimdir. Maqolada foydalanilgani kabi ilg'or pedagogik texnologiyalar va trigonometrik funksiyalar qatnash gan ilmiy izlanishlar [1-33] maqolalarda keng yoritilgan. Shuni ham ta'kidlash kerakki, trigonometrik tenglamalarni yechish trigonometriya materialiga oid o'quvchilar bilimini tizimlashtirish uchun shart sharoit yaratibgina qolmay, balki o'rganilayotgan algebraik material bilan samarali bog'lanishni ham ta'minlaydi. Bu trigonometrik tenglamalarni o'rganish bilan bog'liq bo'lган materialning xususiyatlaridan biridir.

Bu xususiyatlarni o'qituvchi maktab o'quvchilarini trigonometrik tenglamalarni yechishga o'rgatish metodikasini ishlab chiqishda hisobga olishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Avezov A.X. Matematikani o'qitishda interfaol metodlar: «Keys-stadi» metodi // Science and Education, scientific journal, 2:12 (2021), 462-470 b.
2. Avezov A.X. Funksiyaning to'lal o'zgarishini hisoblashga doir misollar yechish yo'llari haqida // Science and Education, scientific journal, 2:12 (2021), 50-61 b.
3. Avezov A.X. «Kompleks sonlar» mavzusini o'qitishda «Bumerang» texnologiyasi // Science and Education, scientific journal, 2:12 (2021), 430-440 b.
4. Avezov A.X. Funksiya hoslasi mavzusini o'qitishda «Kichik guruhlarda ishlash» metodi // Science and Education, scientific journal, 2:12 (2021), 441-450 b.
5. Avezov A.X. Ta'limning turli bosqichlarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish // Science and Education, scientific journal, 2:11 (2021), c. 789-797.
6. Avezov A.X. Oliy matematika fanini o'qitishda tabaqalash texnologiyasidan oydalanish imkoniyatlari // Science and Education, scientific journal, 2:11 (2021), c. 778-788.
7. Avezov A.X. Умумтаълим мактаблардаги математика дарсларида ахборот технологияларини ривожлантириш тамойиллари // Science and Education, scientific journal 2:11 (2021), 749-758 б.
8. Avezov A.X. Matematika o'qitishning tatbiqiy metodlari // Pedagogik mahorat, 2021, Maxsus son. 52-57 b.
9. Шукрова М.Ф., Раупова М.Х. Каср тартибли интегралларни ҳисоблашга доир методик тавсиялар // Science and Education, scientific journal, 3:3 (2022), p.65-76.
10. Avezov A.X., Rakhmatova N. Eyler integrallarining tatbiqlari // Scientific progress, 2:1 (2021), 1397-1406 b

ТА'ЛИМДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН О'РНИ ВА
АФЗАЛЛИКЛАРИ*Rasulova Feruza Uktambek qizi**Izboskan tuman 2-son kasb-hunar maktabi**Informatika fani o'qituvchisi*

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada ta'limga axborot texnologiyalarini o'rni, dars mashg'ilotlarida axborot texnologiyalarini qo'llash orqali dars sifati va yoshlarni IT sohasiga qiziqishlarini oshirish, bundan tashqari ta'limga multimedia vositalarini afzalliklari tadqiq etiladi.

Kalit so'zlar: Axborot, kommunikatsiya, texnologiya, audio signal, video signal, multimedia, individual, motivasiya, kompyuter, informatika

ABSTRACT: This article examines the role of information technologies in education, the quality of lessons and the increase of young people's interest in the field of IT through the use of information technologies in the classroom, and the advantages of multimedia tools in education.

Keywords: Information, communication, technology, audio signal, video signal, multimedia, individual, motivation, computer, informatics

Kirish: Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishining zamonaviy jahon darajasi shundayki, respublikada jahon axborot makonining infratuzilmalari va milliy axborot-hisoblash tarmog'i integratsiyasiga mos keluvchi milliy tizimni yaratish milliy iqtisodiyot, boshqarish, fan va ta'lim samaradorligining muhim omili bo'lmoqda. Bu muammolar ancha murakkab va ayni paytda respublikamiz uchun dolzarbdir. Hozirda olib borilayotgan iqtisodiy, tuzilmaviy va boshqa o'zgarishlarni amalga oshirish natijalari respublikada axborotlashtirish bilan bog'liq muammolarning qanday va qaysi muddatlarda hal etishga ham bog'liqdir. O'quv fanlari bo'yicha elektron o'quv vositalarining yaratilishi mazkur fanlarni o'qitishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatini yanada kengaytiradi. Bu o'z navbatida, talabalarning mazkur fanlar bo'yicha bilimlarini chuqur o'zlashtirishlarining asosiy omili bo'lib, ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshiradi. Ayni shunday sa'y-harakatlar amalga oshirilishi ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini keng tadbiq etishni yanada jadallashtirish, professor-o'qituvchilami ilg'or pedagogik bilimlar va texnologiyalar bilan qurollantirish, ularning mahoratini oshirish, xorijiy oliy ta'lim muassasalari tajribasini chuqur o'rganish hamda ulardagi samarali usul va vositalarni milliy ta'lim tizimimizga joriy etish imkonini yaratadi. Multimedia - gurkirab rivojlanayotgan zamonaviy axborotlar texnologiyasidir. Uning ajralib turuvchi belgilariga quyidagilar kiradi:

axborotning xilma-xil turlari: an'anaviy (matn, jadvallar, bezaklar va boshqalar), original (nutq, musiqa, videofilmlardan parchalar, telekadrlar, animasiya va boshqalar), turlarini bir dasturiy maxsulotda integrasiyalaydi. Bunday integrasiya axborotni ro'yxatdan o'tkazish va aks ettirishning turli qurilmalari, muayyan vaqtagi ish, o'z tabiatiga ko'ra statik bo'lgan matn va grafikadan farqli ravishda, audio va videosignal lar faqat vaqtning ma'lum oralig'ida ko'rib chiqiladi. Video va audio axborotlarni kompyuterda qayta ishlash va aks ettirish uchun markaziy prosessor tez xarakatchanligi, ma'lumotlarni uzatish shinasining o'tkazish qobiliyati operativ va video-xotira, katta sigimli tashqi xotira, xajm va kompyuter kirish-chiqish kanallari bo'yicha almashuvi tezligini taxminan ikki barovar oshirilishi talab etiladi, "inson-kompyuter" interaktiv muloqotining yangi darajasi, bunda muloqot jarayonida foydalanuvchi ancha keng va xar tomonlama axborotlarni oladiki, mazkur xolat ta'lim, ishslash yoki dam olish sharoitlarini yaxshilashga imkon beradi. multimedia vositalari asosida o'quvchilarga ta'lim berish va kadrlarni qayta taylorlashni yo'lga qo'yish xozirgi kunning dolzarb masalasidir. Multimedia tushunchasi 90-yillar boshida xayotimizga kirib keldi. Uning o'zi nima degan savol tug'ladi? Ko'pgina mutaxasislar bu atamani turlicha tahlil qilishmoqda. Bizning fikrimizcha, mul'timedia bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video matn, grafika va animasiya effektlari asosida o'quv materiallarini o'quvchilarga yetkazib berishning mujassamlangan holdagi ko'rinishidir. Rivojlangan mamlakatlarda o'qitishning usuli hozirgi kunda ta'lim sohasi yo'nalishlari bo'yicha tadbiq qilinmoqda. Hatto har bir oila multimedia vositalarisiz xordiq chiqarmaydigan bo'lib qoldi. Multimedia vositalarining 81- yildagi yalpi oboroti 4 miliard AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lsa 94-yil esa 16 milliard AQSh dollarini tashkil qildi. Hozirgi kunda esa sotilayotgan har bir kompyuterni mul'timedia vositalarisiz tasavvur qilib bolmaydi. Kompyuterlarning 70-yillarda ta'lim sohasida keng qo'llash yo'lida urinishlar zoye ketganligi avvalambor ular unumdorligining nihoyatda pastligi bilan bog'liq edi. Amaliyot shuni kursatmoqdaki, multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish ikki barobar unumli va vaqt dan yutish mumkun. Multimedia vositalari asosida bilim olishda 30% gacha vaqt ni tejash mumkin bo'lib, olingan bilimlar esa xotirada uzoq muddat saqlanib qoladi. Agar o'quvchilar berilayetgan materiallarni kurish asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saqlash 25-30% oshadi. Bunga qushimcha sifatida o'quv materiallari audio, video va grafika ko'rinishda mujassamlashgan xolda berilsa, materiallarni xotirada saqlab qolish 75% ortadi.

Multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish quyidagi afzallikkлага ega:

- 1) berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o'zlashtirish imkoniyati bor;
- 2) ta'lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqi yanada ortadi;

3) ta'lim olish vaqtining qisqarish natijasida, vaqt ni tejash imkoniyatiga erishish;
4) olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq saqlanib, kerak bulganda amaliyotda qo'llash imkoniyatiga erishiladi. Informatika va axborot texnologiyalari fundamental fan sifatida kompyuter axborot tizimlari negizida istalgan ob'ektlar bilan boshqaruva jarayonlarini axborot jihatidan ta'minlashni barpo etish metodologiyasini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. Shunday fikr ham mavjudki, fanning asosiy vazifalaridan biri — axborot tizimlari nima, ular qanday o'rinni egallaydi, qanday tuzilmaga ega bo'lishi lozim, qanday ishlaydi, uning uchun qanday qonuniyatlar xos ekanligini aniqlashdir. Yevropada informatika sohasida quyidagi asosiy ilmiy yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish mumkin: tarmoq tuzilmasini ishlab chiqish, kompyuterli integratsiyalashgan jarayonni ishlab chiqarish, iqtisodiy va tibbiy informatika, ijtimoiy sug'urta va atrof-muhit informatikasi, professional axborot tizimlari. Multimedia tizimining paydo bo'lishi ta'lim, fan, san'at, kompyuter treninglari, reklama, texnika, tibbiyot, matematika, biznes, ilmiy tadqiqot kabi bir qancha kasbiy sohalarda revolyutsion o'zgarishlar yuzaga kelishiga olib keldi.

Kompyuterlarni ta'lim tizimida qo'llash g'oyasi ancha ilgari paydo bo'lган bo'lган bo'lsada, ta'lim tizimining barcha sohalarida axborot texnologiyalarini qo'llash multimedia qurilmalari bilan jihozlangan kompyuterlar paydo bo'lgach to'liq ma'noda amaliyotga joriy etilib boshlandi. Multimedia vositalarini ta'limda qo'llash quyidagilarga imkoniyat yaratadi:

- ta'limning gumanizasiyalashuvini ta'minlash;
- o'quv jarayonining samaradorligini oshirish;
- ta'lim oluvchining shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish (o'zlashtirganlik, bilimga chanqoqlik, mustaqil ta'lim olish, o'zini o'zi tarbiyalash, o'zini o'zi kamol toptirishga qaratilgan qobiliyatilik, ijodiy qobiliyatları, olgan bilimlarini amaliyotga qo'llay olishi, o'rganishga bo'lган qiziqishi, mehnatga bo'lган munosabati);
- ta'lim oluvchining kommunikativ va ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirish;
- o`quvchilarining yosh imkoniyatlarini, zehni, iqtidorlarini hisobga olish, mustaqil ijodiy fikrlash, uning mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og`zaki va yozma tarzda to`g`ri, sodda, ravon ifodalash ko`nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga yo`naltirilgan lingvopsixologik o`yin-topshiriqlardan foydalanish ko`zda tutiladi.

Masalan: kecha va kunduz so`zlarining uxhash va farqli tomonlarini aniqlang va sharhlang.

1. Uxshashlik: berilgan kucha va kecha so`zlar:

- harflar sonining tengligi;

- bir xil undosh bilan boshlanishi;

- talaffuz ohangidagi yaqinlik;

- oxirgi bug`unning – cha bilan tugallanishiga ko`ra bir-biriga yaqin talaffuz qilinadi.

2. Farqi: birinchi bug`undagi ikki xilligi;

- lug`aviy ma`nosи; kecha-tun, oqshom; kucha-aholi yashaydigan joylarda yulovchilar o`tib turadigan, transport qatnaydigan yo`l.

Izchillik prinsipi.

Ta`lim izchilligi uchun tizimlilik o`lchov hisoblanadi. Bu haqda Ya.A.Komenskiy aytadi: “Mashg`ulotlarni shunday o`tkazish kerakki, unda keyin

o`rganiladigan hodisa o`rganilganlarga asoslansin, hozirgisi keyingilarini o`rganishda mustahkamlansin”.

Haqiqatdan ham, o`quvchilarning nutqiy tayyorgarligiga tayanish, ularning oldingi sinflarda hosil qilgan bilimlarini hisobga olish, o`rganilgan va o`rganiladigan bilimlar urtasida aloqadorlikni ta`minlashga izchillik prinsipi orqali erishiladi.

Masalan: ot, uning ma`nosi, surokłari, birlik va ko`plikda, kelishik, egalik qo`shimchalari bilan qo`llanishi kabi boshlang`ich ma`lumotlarga tayanib, o`quvchilar ot so`z turkumi vositasida so`z birikmalari va gaplar kurishni o`rganishi tizimli va izchil bilim olishga zamin hozirlaydi.

Ko`rsatmalilik va onglilik prinsiplari.

Ta`limda ko`rsatmalilikdan foydalanish o`tiladigan mavzuni zoxiriylash ifodalash va egallangan bilimlarni takrorlash va mustahkamlash yuzasidan belgilanadi. Boshlang`ich sinflarda uyunchoqlar, rasmlar, narsa buyumlarni bevosita kuzatish, ushslash va ularning mantiq-mohiyatini chuqurroq anglashga, qurilganlarni og`zaki ifodalash ehtiyoji esa o`quvchida boyitish, mustaqil mushohada ko`nikmasini rivojlantirishga, birlamchi nutqiy malakalar hosil bo`lishiga yordam beradi.

Yuqori sinflarda xususan, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida ko`rgazmalilikni yanada kengroq qamrovda tashkil qilish maqsadga muvofiq. Turli timsoliy belgilar, rangli jadvallar, lingafon, magnitafon, diktafon, radio va televiedeniya ko`rsatuvlari, o`quv – o`rgatuv texnikasining so`ngi

yutug`lari: kompyuter, multimediya, kolidoskop, videoglaz singarilardan unumli va samarali foydalanish o`quvchining ijodiy va nutqiy barkamolligini tanlash, ma`naviy dunyoqarashini kengaytirishga shart-sharoit yaratadi.

Zamonaviy darslik va o`quv qo`llanmalarini takrorlash, umumlashtirish, egallangan buyumlarni mustahkamlashga qaratilgan grammatik jadvallar, kompyuterda ishlashga yunaltirilgan dasturlar, fikrlash jarayonini jadallashtirishga qaratilgan o`quv topshiriqlari, ijodiy tafakkur doirasini kengaytiruvchi savol, topshiriq va boshqotirmalar bilan boyitilishi maqsadga muvofiq.

O`quvchi shaxsida nutqiy tadbirkorlik, notiqlik san`ati kurtaklarini rivojlantirish, og`zaki va yozma matn yaratish malakasini shakllantirish e`tibordan chetda qolib ketmasligi lozim.

Til hodisalarini o`rganishda eng samarali va sinalgan grammatik vositalardan biri ko`rgazmali kommunikativ jadvallardir.

Kommunikativ jadvallar ishlatalishi maqsadiga ko`ra turlicha bo`ladi:

1. Leksik jadvallar.
2. Fonetik jadvallar.
3. Grammatik jadvallar.
4. Imloviy (orfografik) jadvallar.
5. Stilistik uslubiy jadvallar.

6. Aralash jadvallar (imlo va so`z yasalishi fonetika va so`z tarkibi) Jadvallar yasalgan materialiga ko`ra ikki xil ko`rinishda bo`ladi.

1. Bosma (grafik) jadvallar (har xil hajmli oq qog`oz yoki materialga ishlanadi)

2. Slayd jadvallar (rangsiz kleyonkaga rangli tasvirda tushuriladi)

Bundan tashqari hozirgi o`zbek adabiy tilini o`rganishda zamonaviy texnika vositalari bo`lmish:

1. Lingafondan foydalanish ya`ni eshituv a`zolari orqali to`g`ri talaffuzki, qiroat san`atini o`rganish;

2. Video kurs: o`zbek tilining talaffuz me`yorlari audio-video muloqotini o`rganish.

3. Kommunikativ savodxonlikni ta`minlashga qaratilgan kompyuter o`quv dasturlaridan foydalanish yaxshi natijalarga olib keladi. Masalan:

- imloviy dasturlar (bunda o`quvchining imlo savodxonligini oshirishga qaratilgan o`quv mashqlari disketlarga joyланади);

- fonetik hodisalar kompyuter dasturi (bunda fonetika bo`yicha o`quv mashqlari disketlarga beriladi);

- Grammatik dastur (morpholiya va sintaksis o`quv topshiriqlari tuzilib, disketlarga joylashtiriladi);

- Stilistik (uslubiy) dastur. Bunda o`quvchining uslubiyat bo`yicha egallagan bilim va ko`nikmalarini shakllantirish, so`z tanlash, gapni kengaytirish va ixchamlashtirish, berilgan matnni davom ettirish va matn yaratishning bosqichli tizimi (MYaBT) ustida ishlash uchun mo`ljallangan savol va topshiriqlar, mashqlar, ma`rifiy hamda topshiriqli rasmlar (mustaqil matn yaratish uchun) beriladi.

- Audio-vedio dasturlar. Ularda muayyan bir sharoitda bo`lib o`tgan uchrashuvlar, ilmiy-amaliy kengash va anjumanlar, marosimlar (yubiley, to`y, kelin salom, beshik to`yi); bayramlar – Mustaqillik kuni, Navro`z taronalari, yangi yil oqshomi, bitiruvchilar kechasi (oqshom) tasvirlari videotasmalarga tushirilib, videokassetalarga tartib bilan joylahtiriladi.

Yuqorida keltirilgan o`quv dasturlaridan 1-, 2-, 3 – si so`z boyligini oshirish, fonetika, orfoefiya, leksikologiya, morfologiya, va sintaksis yuzasidan egallangan bilim, malaka va ko`nikmalarni mustahkamlash uchun tavsiya etilgan bo`lsa, 4- va 5-dasturlar o`quvchining yozma va og`zaki nutqini shakllantirish, matn yaratish malakalarini rivojlantirish uchun mo`ljallangan.

Bundan tashqari hozirgi o`zbek adabiy tilini o`rganish jarayonini kodoskop, mul`timedia, “Videoglaz” kabi zamonaviy va zaruriy o`quv texnikasi bilan ta`minlanishi, ularning o`quv muassasalarida mavjud bo`lishi hamda amaliyatga tatbiq etilishi bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Hozirgi kunda o`zbek tili o`qitish metodikasi fanini yutuqlari bilan boyitilmoqda, yangi avlod darslik va o`quv qo`llanmalari yaratilmoqda.

Ulardan biri Sizning e`tiboringizga havola qilinayotgan “Hozirgi o`zbek adabiy tilini o`rganishda kommunikativ jadvallardan foydalanish” nomli yangi o`quv qo`llanmasidir. Unda asosiy e`tibor so`z boyligini oshirish, egallangan Grammatik bilimlarni takrorlash, mustahkamlash va umumlashtirish, so`zlash va so`z tanlash mahoratini, matn yaratish hamda nutq madaniyatini shakllantirishga qaratilgan.

Qo`llanmaga ilova qilingan kommunikativ ko`rgazmali jadvallar o`zbek adabiy tilida qo`llaniladigan barcha til hodisalarini qamrab olgan bo`lib, test topshiriqlari tuzish va uni echishda zaruriy ashyo vazifasini o`taydi.

Ona tili darslarida, kodoskop va videoglaz singari o`quv texnikasidan samarali foydalanish mumkin. Chunonchi, kodoskop yordamida slayd – jadvallarni maxsus ekranga tushirish mumkin bo`lsa, videoglaz barcha tasviru – yozuvlarni, ko`zga ko`rinadigan barcha jonzotu mavjudotlarni, test topshiriqlaridan tortib, insho matnlarigacha teleekranga chiqarib berishi mumkin.

“Videoglaz” ga nisbatan kodoskopning imkoniyatlari ancha chegaralangan. Kodoskop faqatgina shaffof pylonkadagi tasvirlarni ekranga chiqarishga moslashtirilgan. Oq qog`ozdagи tasvir kodoskopda ko`rinmaydi. Shuning uchun ekranga tushirilishi lozim bo`lgan har bir tasvir (test, yozuv, shakl) rangsiz (shaffof) pylonka varrakchalarga rangli flomasterlarda yozilishi maqsadga muvofiq.

Uyga berilgan topshiriqni pylonkada bajarib kelgan o`quvchi o`z ijodiy ishini ekranga tushirib, o`rtoqlari muhokamasiga tashlashi, o`z fikri va yaratgan yangiligini himoya qilishi, to`g`ri yoki noto`g`riliqi aniq bir xulosa va echimga kelishi mumkin.

Ta`lim texnologiyasida “portlash” effektini beradigan eng yangi texnika vositasi bu- “Videoglaz”. Uning ishlatalishi ko`lamii, ichki imkoniyatlari benihoya keng bol`ib, o`qituvchidan katta ijodiy tajriba va pedagogic mahoratini talab qiladi.

“Videoglaz” ning qulayligi, benuqsonligi shundaki, u videokameraga uplash ko`z vazifasini o`taydi. Unda hamma narsa bevosita teleekran yoki ko`chma ekranga qayta tasvir uchun uzatilaveradi. Bu ta`lim jarayonida tafakkurning mutlaq tantanasiga, inson aqlu zakovatining turli qirralarini ochib beruvchi, bolaga o`z iqtidorini namoyish qilish imkoniyatini yaratib beruvchi omilga aylantiradi.

Ona tili o`qitishning o`ziga xos prinsiplari.

Tilshunoslik fanida o`rganiladigan bilimlarning asoslari, ularning o`ziga xos xususiyatlari batafsil bayon etiladi.

Tilda nimani qanday, qancha, o`rganish, o`zlashtiriladigan bilimlar hajmi va mazmuni kabi masalalar bilan metodika fani shug`ullanadi.

Demak, til o`qitishning metodik prinsiplari ham tilshunoslik, ham uslubshunoslikning o`ziga xos xususiyatlariga ko`ra belgilanadi.

Ijodiy tafakkurni rivojlantirish

Ijodiy tafakkur, ijodiy izlanish mustaqil fikrlash orqali rivojlanadi.

Natijada:

- o`quvchidagi noma`lum bo`lgan til hodisalarini bilish jarayoni faollashadi;
- egallangan bilimlarning puxtaligi va qiziqarliligi ta`minlanadi.
- Til materillarini qilishga qiziqish ortadi.

Demak, tafakkurni o`sirish til mashg`ulotlarida til hodisalarini kuzatish, takrorlash, tasnif qilish, umumlashtirish, uqlash vositalardan eng qulayini to`g`ri tanlay olish ko`nikmalarini shakllantirish asosida yuzaga keladi.

Til ta`limi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri nutq madaniyatini rivojlantirishdir. Nutqning ifodaliligi va ta`sirchanligini (so`z urg`usi va mantiqiy u`rg`u, pauza va ovoz tembri, nutq sur`ati, tovush, bug`un, so`z, gaplarni ravon aytish, gap mazmuniga ko`ra darak, so`roq, buyruq, undov ohangi bilan ayta olish) ta`minlashda ko`nikma va malakalar ham ona tili mashg`ulotlarida shakllanadi.

Tilning barcha bo`limlari ham nutqiy rivojlantirishda keng imkoniyatga ega.

Masalan: “Fonetika” ni o`rganishda so`zdagi ma`lum bir tovushni uzgartirib, tovushdosh, so`zlar hosil qilish, shuningdek, o`zakdosh, qo`shimchadan qofiyadosh, ohangdosh so`zlar yasash, ularning lug`aviy ma`nolari hamda ma`no guruhlari ustida ishslash o`quvchi so`z boyligini oshiradi, nutqiy malakalarini shakllantiradi.

1-topshiriq. Berilgan so`zni zinapoya shaklida kengaytirib, yangi so`zlar yasang. Har bir so`z oldingisidan bir tovush bilan farqlansin.

O	L				
O	L	A			
O	L	A	M		
O	L	I	M	A	
O	L	I	N	M	A

1.2. Hosil qilingan so`z ma`nosini sharhlang.

1.3. Ulardan so`z birikmalari hosil qiling.

1.4. Mazkur birikmalar ishtirokida gap tuzing.

“Leksikologiya” ni o`rganishda so`zning o`z va ko`chma ma`nosini farqlash, ko`p ma`noli, ma`nodosh, uyadosh, shakldosh so`zlar ustida ishslash so`z boyligini oshirish va boyitishga xizmat qiladi. Yosh avlod qalbida o`z ona tili bilan faxrlanish, unga muhabbat hissini tarbiyalaydi.

1-topshiriq quyida berilgan gaplarni o`qing. **Bosh** so`zi qaysi ma`noda ekanligini aniqlang.

1. Oybekning boshi og`ridi. 2. Oybekning boshi yaxshi ishlaydi. 3. Urushda qancha bahodirlarning boshi ketdi. 4. Fermerga o`n bosh qora mol berildi.

2-topshiriq. Gaplarni o`qing. Qaysi so`z o`z ma`nosida, qaysisi ko`chma ma`noda ishlatilganini ayting.

1. Navoiy asarlarini o`qiymان – Navoiyni o`qiymان.
2. A.Oripov she`rlaridan yod oldim – A.Oripovdan yod oldim.
3. Samovarda suv qaynaydi. – Samovar

Ona tili darslarida lingvopsixologik topshiriqlar ustida ishlash aqliy faoliyatni rivojlantiradi, o`quvchilarda diqqat, xotira, tafakkur kabi intellectual qobiliyatlarni o`stiradi, mustaqil va ijodiy izlanishga urgatadi.

REFERENCES

1. X.Ne`matov, O.Bozorov. Til va nutq. Toshkent. “O`qituvchi” 1993 yil.
2. X.Ne`matov, A.G`ulomov. Maktabda til sathlarini o`zaro bog`lab o`rganish. Toshkent. 1992 yil.
3. E.Agzamov. Ona tilidan muammoli dars, “Til va adabiyot ta`limi” jurnali. 1993 yil 3-4 qo`shma soni. 27-30 betlar.
4. Yu. K.Babanskiy. Hozirgi zamon umumiy ta`lim maktabida, o`qitish metodlari. Toshkent. “O`qituvchi” 1990 yil.
5. M.Mahmutov. Maktabda muammoli ta`limni tashkil qilish. Toshkent. “O`qituvchi” 1981 yil.
6. M.Saidov. Muammoli ko`rgazmalardan foydalanish. “Til va adabiyot ta`limi” jurnali. 1993 yil. 5-6 qo`shma soni. 13-14 betlar.
7. www.ziyonet.uz

GEOGRAFIYA DARSLARINI O'QITISHDA ATLAS VA XARITALAR BILAN ISHLASH TEKNOLOGIYALARI

Begaliyev Dildor Abdusaidovna

Surxondaryo viloyati Denov tumani

87-maktabning geografiya fani o'qituvchisi

Davilova Kurshida Rustamovna

Surxondaryo viloyati Denov tumanidagi

87-umumiyy o'rta ta'lif maktabining geografiya fani o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolaning mazmun va mohiyati o'quvchilarning geografik bilimlarni puxta egallashda yordamchi hisoblangan geografik xaritalarni o'qitishga qaratilgan. Geografik xaritalarni o'qiy olgan o'quvchi kreativ fikrlay oladi, dunyoqarashi kengayadi, to'g'ri va mustaqil xulosa chiqara oladi, xotirasi mustahkamlanadi.

Kalit so'zlar: Geografiya, xarita, shartli belgililar, masshtab, geografik koordinata, kenglik, uzunlik, balandlik shkalasi, chuqurlik shkalasi, sayohat, marshrut, atlaslar, globus.

TECHNOLOGIES OF WORKING WITH ATLAS AND MAPS IN TEACHING GEOGRAPHY LESSONS

ABSTRACT

The content and essence of this article is aimed at teaching geographical maps, which are considered to help students gain a thorough knowledge of geography. A student who is able to read geographical maps will be able to think creatively, expand their worldview, draw correct and independent conclusions, and strengthen their memory.

Keywords: Geography, map, symbols, scale, geographical coordinates, latitude, longitude, altitude scale, depth scale, travel, route, atlases, globe.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lif tizimiga ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etishga katta e'tibor berilmoqda. Geografiya fanini o'rganishda xaritalar katta ahamiyatga ega bo'lib, o'z navbatida barcha geografik tadqiqotlar ham xaritalar vositasida amalga oshiriladi.

Ishning maqsadi o'quvchilarni geografiya darslarida xaritalar bilan ishlash texnologiyalarini rivojlantirish va samaradorligini oshirishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ishni bajarishda umumta'lim maktablari uchun mo'ljallangan o'quv atlaslarida berilgan xaritalardan hamda xaritalarni o'zaro taqqoslash, qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi.

NATIJA

Geografiya fanini xaritasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Xarita geografiya o'r ganadigan barcha predmet va hodisalar haqida hikoya qiladi, xaritalar geografik ma'lumotlarni tez, aniq va lo'nda qilib hikoya qilishda geografiya darsliklariga tenglashtiriladi. Geografiya sohasida olib boriladigan har qanday tadqiqotlar ham xaritalar bilan bog'liq ravishda bajariladi.

Geografiya ta'limining mazmunli va qiziqarli bo'lishida hamda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishda ko'rgazmali quollar, xususan, xaritalarning o'rni va ahamiyati katta bo'lib, darslarda yuqori samaradorlikka erishish uchun matnli ma'lumotlar berish bilan birga muntazam ravishda turli mavzulardagi va masshtabdagi o'quv xaritalari, atlaslar, globuslar, yozuvlarning xaritalar bilan ishslash talab etiladi. Binobarin, o'quvchilar turli geografik ob'ektlarning geografik o'rmini bilmay turib, ular haqidagi ma'lumotlarni ongli holda o'zlashtira olmaydilar. O'qituvchi o'quvchilarni yangi geografik ob'ektlar bilan tanishtirish jarayonida ularni devoriy xaritadan ko'rsatib, bu ob'ektlarni atlas yoki darslik xaritasidan topishni va ularning geografik o'rmini tahlil qilishni o'rgatishi maqsadga muvofiqdir.

Xarita mavzusi bilan tanishtirilib, asosan nimalar tasvirlanishi zarurligi aytib o'tiladi. Masalan, "Dunyoning tabiiy xaritasida" materik va okeanlarning chegaralari, relyefi, qismlari, geografik obyektlari, quruqlikdagi relyef shakllari, suv havzalari, relyefning asosiy baland va past joylari, muhim bo'lgan aholi punktlari, okeanning suvosti relyefi, qismlari va hakozolar.

Xaritaning masshtabi haqida tushuncha beriladi. Masshtabning turlari, undan foydalanish, nomli, sonli, chiziqli masshtablar bilan ishslash, masshtab yordamida masofani aniqlash ko'nikmalarini shakllantirish zarur. Bunda o'quvchilarga sonli masshtabni nomli masshtabda ifodalashni tushuntirish kerak. Chunki aksariyat xaritalarda sonli masshtabdan foydalaniladi. Sonli masshtabni nomli masshtabga o'tkazishda kilometrda ifodalash uchun 5 ta nol(0), metrda ifodalash uchun 2 ta nol(0)ni o'chirib hisoblashga o'rgatish yaxshi samara beradi.

Xaritalarda har bir geografik obyekt va hodisalar o'ziga xos shartli belgi bilan tasvirlanishi aytib o'tiladi. Shartli belgilarning turlari, yozuvli, geometrik shaklli, chiziqli, rangli, nuqtali, harfli, raqamli, ko'rsatkichli, rasmi va boshqa shartli belgilar ko'rsatilib, misollar keltiriladi. O'quvchilarda shartli belgilarni o'qish ko'nikmasi shakllantiriladi. Jumladan, yozuvli shartli belgilar bilan ishlaganda o'quvchi geografik obyektlar nomini o'qib, yozuvlarni bir-biridan farqlay olishni o'rganishi kerak. Bunda

geografik obyektlar nomlari yozilgan harflar bir-biridan katta-kichikligi, yo'g'onligi, ranggi, hajmi bilan farq qiladi. Masalan, materik va okean nomlari yirik harflar bilan, o'lkkalar, davlatlar, dengizlar ularga nisbatan kichikroq harflar bilan yoziladi. Geografik obyektning maydoniga mos holda yozuv kichrayib boradi. Geometrik shakllar bilan foydali qazilmalar, chiziqli shartli belgilar bilan geografik obyektlarning chegaralari, yo'llar, daryolar tasvirlanadi. Chiziqli shartli belgilar yo'g'onligi, ranglari, kesmalarga bo'linganligi va uzuq-uzuq chiziqli bo'lishi bilan bir-biridan farq qiladi. Bu o'quvchiga alohida ta'kidlab o'tilishi shart, chunki o'quvchi davlat chegarasi bilan uning ma'muriy hududlari chegarasini farqlay olishi lozim. Yo'llarni tasvirlashda ham chiziqning yo'g'onligiga, turli kesmalar bilan bo'linganligiga, rangiga qarab so'qmoq yo'l, asfalt yo'l, beton yo'l yoki temiryo'l ekanligini bilishi zarur. Chiziqli shartli belgi bilan yana har xil liniyalar – elektr liniyalari, bir xil voqe va hodisalarni tutashtiradigan izochiziqlar ham tasvirlanadi. Bunday belgilar ranggi bilan ham farqlanadi.

Rangli shartli belgilar voqe va hodisalarni bir-biridan farqlashda: quruqlik va suv havzalarini, relyefini, tabiat zonalari, iqlim mintaqalari, davlatlar, aholi va sanoat obyektlarini tasvirlaganda ishlatiladi. Ranglar yana och va to'qligi bilan ham voqe hodisalarni o'zgarib borishini tushuntiradi. Masalan, suv havzalarida moviy rangning to'qlashib borishi suv havzasining chuqurlashib borayotganini bildiradi. Yoki aholi xaritalarda aholi zichligi jigar rangda tasvirlanadi. Och jigar rangdagi hududlar aholi siyrakligini bildirsa, rang to'qlashib borishi aholi zichligining ortib borishini tushuntiriladi. Shuningdik, o'quvchilar keyinchalik xaritada berilmagan ayrim ma'lumotlarni ham bilib olishga intiladilar. Xaritani o'qish asosida tegishli xulosa va yakunlar chiqara olishlari uchun o'quvchilarga beriladigan savollar nazariy bilimlarga asoslanuvchi, hodisa sabablarini aniqlovchi savollar bo'lishi kerak. Masalan: Himolay tog'larining janubda yog'in nima uchun juda ko'p-u, shimolida kam? Qoraqum bilan Qizilqumning cho'l bo'lishiga sabab nima? degan savollar. O'quvchilarniig xaritadan oladigan bilimlari ma'lum bir tartib, reja asosida (masalan, joyning geografik o'rni quyidagi tartibda: joyning nomi, u joylashgan materik, uning geografik kengligi va uzunligi, dengiz va quruqlikdagi chegaralari, geografik o'rnining qulay va noqulayligi) bo'lishi kerak.

MUHOKAMA

Xaritani o'qish ko'nikmalarini takomillashtirishda xarita bo'yab "sayohat"ning ahamiyati katta. O'quvchilarni "sayohat" marshrutlari bilan tanishtirish kerak. Xaritada qilinadigan "sayohat" bilan o'quvchilar xaritani jonlantiradilar, xaritadagi ob'ektlarni o'zlari o'sha joylarda bo'lgandek hikoya qilib beradilar. Evrosiyo mavzusiga oid bir necha «sayohat» marshrutlarini ko'rib chiqaylik.

1- marshrut. Londondan Evrosiyoning janubiy qirg'oqlari bo'yab kemada Vladivostokkacha sayohat.

2- marshrut. Toshkent – Kobul – Dehli (avtomashinada) – Kal’kutta (poezdda) – Jakarta (kemada) sayohati.

3- marshrut. Toshkent kengligi bo‘ylab Evrosiyoning g‘arbiy chekkasndan sharqiy chekkasigacha samolyotda sayohat.

Bu sayohatlarda o‘quvchilar Evrosiyoning turli mazmundagi xaritalari, rasmlar, gerbarylardan foydalanadilar. Birinchi marshrutda o‘quvchilar kanday okean, dengiz, bo‘g‘oz orqali, qaysi yarimorol va orollar yonidan o‘tganliklari haqida dengizlarning muzlash yoki muzlamaslik sabablari haqida so‘zlab beradilar. Ikkinci va uchinchi marshrtlarda yo‘lda uchragan har bir joyning er yuzasi, dengizlar, iqlimning o‘ziga xos xususiyati, daryo va ularning xususiyati, o‘simgil va hayvonot olami, aholisi haqida, shuningdek sayohat uchun qulay vaqt va yo‘lda uchraydigan qiyinchiliklar haqida gapirib beradilar. “Sayohat” vaqtida har bir joyning tabiiy sharoitini o‘z o‘lkasining tabiiy sharoiti bilan taqqoslab boradilar. Bir marshrutga 2-3 o‘quvchi (marshrutni bir necha qismga bo‘lib) javob berishi mumkin.

Xarita bo‘ylab qilingan sayohat o‘rganilgan materialni mustahkamlash va takrorlash maqsadida tashkil etilishi mumkin.

XULOSA

Geografiya sohasida olib boriladigan har qanday tadqiqotlar ham xaritalar bilan bog‘liq ravishda bajariladi. Xarita – geografiya darslarida bilim olishning asosiy manbaidir. SHunday ekan har bir o‘quvchi xaritani o‘qiy olishi lozim. Agar o‘quvchi xaritaga qarab o‘rganilmagan dengiz yoki daryo haqida gapira olsa, tog‘larning balandligi va yo‘nalishini aniqlay olsa, ma’lum bir joyning er yuzasini yoki iqlimini ta’riflay olsa, bu o‘quvchi xaritani biladi, deyish mumkin.

Xaritani o‘qishdan avval xaritani tushunish kerak. Xaritani tushunish uchun esa xaritaning shartli belgilarni bilish zarur. Ammo o‘quvchiga xarita shartli belgilar o‘rgatilsayu, xaritani o‘qishga oid mashqlar o‘tkazilmasa, u samarali natija bermaydi. Xaritalarni odatda suhbat yo‘li bilan taqqoslanadi, masalan, o‘qituvchi o‘quvchilarga savol beradi, o‘quvchilar savollarga xaritalar asosida javob berish bilan faktik ma’lumotlarni aniqlaydilar va bu xaritalarni bir-biriga solishtirib tegishli xulosalar chiqaradilar. Xullas, geografik xaritalarni o‘rganish davomida o‘quvchilarning geografik dunyoqarashi, voqeа, hodisa va jarayonlarni anglab yetishi, tushuntirishi va xulosa chiqarishi, hayotda qo’llay olishi, turli mazmundagi xaitalarni o‘qib, ulardan to‘g’ri foydalanish ko’nikmalari shakllanib boradi.

REFERENCES

1. Tojieva Zulkumor Nazarovna, Dusmanov Farhod Azamqulovich, Muhamedova Nazokat Jurayevna, & Haydarova Surayyo Abdusalomovna (2016). Mustaqillikdan keyingi yillarda O‘zbekiston Respublikasi aholisining o‘limi va umr ko‘rish davomiyligi. Evropa ilmiy sharhi, (3-4), 24-27.

2. Shernayev Akbar (2020/1/30) Abstracts of V International Scientific and Practical Conference Osaka, Japan 29-31 January 2020, 189-193.
3. Иброимов, Ш. И. Ў., & Болтаев, М. Ж. (2020). Ўзбекистон төвводийларининг экотуристик имкониятлари ва улардан фойдаланиш. Academic Research in Educational Sciences, (1).
4. Rajabov Furkat Turakulovich, Sattarov Abdisamat Umirkulovich (2020) FARMS OF UZBEKISTAN: DEVELOPMENT, SPECIALIZATION, GEOGRAPHY. Journal of Critical Reviews, 7 (6), 1189-1196.
5. Oybek Uralovich Abdimurotov (2020). TABIIY GEOGRAFIYA DARSLARINI MUSTAQIL O'RGANISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING IMKONIYATLARI. Academic research in educational sciences, (3), 1306-1312.
6. Ibroimov, S., & Madaminova, M. (2020). Maktablarda geografiya fanini o 'qitish samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalarni qo 'llash. Academic research in educational sciences, (1).
7. Radjabov, F. (2020). Describe the Individual Food Industry Contents and their Role in the Delivery of Agricultural Products. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 19(1), 292-294.
8. Komilova, N. K., Haydarova, Ş. A., Xalmirzaev, A. A., Kurbanov, S. B., & Rajabov, F. T. (2019). Territorial Structure of Agriculture Development in Uzbekistan in Terms of Economical Geography. Journal of Advanced Research in Law and Economics, 10(8 (46)), 2364-2372.
9. Шерзод Иброим Ўғли Иброимов, Мансур Фарманович Бўрибеков, & Мақсуда Анвар Қизи Сатторова (2020). ЁШ АВЛОДГА ЭКОЛОГИК ТУРИЗМНИНГ МАЗМУН-МОХИЯТИНИ ЕТКАЗИШ. Academic research in educational sciences, (3), 275-279.
10. Turakulovich RF (2020). Dynamics and Regional Features of Agricultural Production. In the Republic of Uzbekistan. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24 (2), 1264-1269.
11. Фуркат Ражабов, Лобар Джўраева, & Асрор Махмадалиев (2020). ЎЗБЕКИСТОН ФЕРМЕР ХЎЖАЛИКЛАРИ: РИВОЖЛАНИШИ, ИХТИСОСЛАШУВИ, ГЕОГРАФИЯСИ. Academic research in educational sciences, (3), 674-686.
12. Шерзод Иброимов, Маҳмуд Болтаев, & Мақсада Сатторова (2020). МАКТАБ ЎҚУВЧИЛАРИ ОНГИДА РЕКРЕАЦИЯ ТУШУНЧАСИНИ

ШАКЛАНТИРИШ. Academic research in educational sciences, (3), 146-151.

13. Фуркат Тураколович Ражабов, & Азиза Абдуллаевана Олимова (2020).

ТАЪЛИМ МУАММОЛАРИ ЕЧИМИДА ИННОВАЦИОН КЛАСТЕРНИНГ АҲАМИЯТИ (ГЕОГРАФИЯ ТАЪЛИМИ МИСОЛИДА). Academic research in educational sciences, (3), 697-702.

14. Sharipov Shavkat Mukhamajanovich, Shomurodova Shahnoza Gayratovna,

Gudalov Mirkomil Ravshanovich (2020) THE USE OF THE MOUNTAIN KARS IN

THE TOURISM SPHERE IN CORT AND RECREATION ZONE OF CHIMGAN-

CHARVAK. Journal of Critical Reviews, 7 (3), 475-481.

15. Шомуродова Шахноза Гайратовна Природные озера Тянь-Шаня в зоне отдыха Чимган-Чарвак // Европейское научное обозрение. 2018. №9-10-1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/the-natural-lakes-at-the-tianshan-mountains-covered-in-chimgan-charvak-recreation-zone> (дата обращения: 15.12.2020).

EDUCATION - AN ALTERNATIVE TO OPPOSITION

Orazimbetova Oysuluv Ozod qizi

3 years students, Undergraduate degree

Nukus State Pedagogical Institute named after Azhiniyaz
(Nukus, Republic of Karakalpakstan)

Janbulsinova Baxaray Jambul qizi

3 years students, Undergraduate degree

Nukus State Pedagogical Institute named after Azhiniyaz
(Nukus, Republic of Karakalpakstan)

Jiemuratova Sharigul Qutlimurat qizi

3 years students, Undergraduate degree

Nukus State Pedagogical Institute named after Azhiniyaz
(Nukus, Republic of Karakalpakstan)

Artiqbaev Berdibay Quwanishbay uli

3 years students, Undergraduate degree

Nukus State Pedagogical Institute named after Azhiniyaz
(Nukus, Republic of Karakalpakstan)

Abstract: In this article the prevention of illegal actions, such as fraud and corruption, is considered. This is achieved by correctly organized educational process at all stages.

Keywords: educational process; education; moral; illegal actions

Introduction. At present, the reality of the concept of "morality" is so distorted that it is possible to clarify only in encyclopedias and on the Internet. I will try to explain using examples that are generally understandable for all, which also affected me:

- in many houses, especially multi-storey ones (16 - 26 floors), in order to use hot water, it needs to be drained up to half an hour, and in 30 minutes up to 180 liters of water flows out of the tap. And if several times a day, yes every day, then in a month several tons of supposedly hot water flows away without any benefit, which in utility bills is estimated at almost 2 times more expensive than cold water;

- in grocery stores and in banks on documents - without a magnifying glass, there is no other way to read all the initial data;

- textbooks, in particular pedagogical, are published, of course, according to all ministerial rules, but with a large number of biased inaccuracies and errors, and this is the basis of all pedagogy;

- physicians, as a rule, write prescriptions for very expensive medicines, and they are generous in dosage;

- and "kickbacks" when receiving various kinds of contracts,

- and much more.

The primordially Russian question naturally arises: "So what to do?"

Relevance. Failure to comply with the norms of morality and ethics en masse, even in several areas of public relations, immediately causes a "chain" reaction among other users, especially if these are young people, whose targeted education should be done according to all the canons of pedagogy.

Rationale, purpose and objectives - methods. We ourselves, as parents, our children and grandchildren, with very rare exceptions, to put it mildly, are not enthusiastic about the existing education system. There are several reasons:

- in the nursery and in the kindergarten, the personality of the educator plays a huge role: there are creatively active ones that give children many different skills, and there are mainly babysitting. At present, the latter is increasingly being implemented and the trend of paid education, especially special skills and knowledge, while naturally the usual moments of upbringing that are necessary in life are fading into the background;

- in elementary grades, without parents, a child cannot do almost anything at home, mostly parents do everything themselves, and modern children have fun with the phone. This, of course, has its advantages, but the opportunities for the younger age to actively assimilate knowledge and skills are lost;

- in middle and high school, subject students try to saturate the teaching with all possible knowledge that is available. I do not exclude that the level will be brought up to secondary specialized and higher education.

One way or another, it turns out that there is no place and time for serious moral education. Moreover, in many cases, the personal characteristics of educators and teachers seriously distort the concepts of morality in the minds of the pupils (by their rudeness, or by demanding gifts, or by offering sex with classmates, or the like) - the lack of appropriate moral education is obviously reflected.

An example of the correct upbringing of morality: in the metro, by repeating the phrase "Give up your seats ..." more than once, we achieved our goal - young people who always strive to quickly sit down, resignedly give way to those who are supposed to be in the ad, but the guy will never give up his place to the girl elderly woman - not announced. I live in a small town, where there is no metro, that you just do not hear in response to requests to give way, such as: "Why don't you go, stay at home?" in a city with a population of almost one hundred thousand, the necessary upbringing in the education system is not really felt, the metro is clearly more successful. Having studied various educational systems and the content of pedagogical programs and school textbooks, we can conclude: the more knowledge in school is given to everyone, without exception, the better. Why such confidence is completely incomprehensible, when asking former schoolchildren, you understand that little knowledge lingers in

their brains: they are poorly guided in the geography of their native country, very weak opportunities to apply geometry, poor literacy, not to mention the ability to write a simple story or letter, etc. ... Those. in practice, the task of all-round education required by the Federal State Educational Standard has been reduced for many to an empty knowledge of the names of the subjects being studied. Thus, for a significant change in the education system, in particular, for a serious improvement of such an obligatory function of pedagogy as upbringing, it is necessary:

- to change the attitude of educators and teachers to the volumes of studied subject knowledge and the subjects themselves, towards their optimal and selective (according to the students' abilities) reduction;

- to introduce into the education system on a permanent basis, it is possible that in "social studies" such generally valid knowledge as tolerance, morality, ethics, religion, philosophy, etc. This knowledge should be taught to children starting from 10-11 years old, when children have more or less got stronger for understanding life in society, and tolerance, including morality, from 1.5-2.5 years old. But in the beginning - only basic, fairly simple knowledge. You can complete this training by the age of 14-15. At the same time, details are not needed at all, but only general concepts and a systematic approach to such training.

And since it will be a long-term study, i.e. frequent repetition in various verbal forms of the truths necessary for cognition, then the "metro effect" on the education of morality will be ensured.

In one or two generations, or maybe earlier, moral truths will be unshakable in the consciousness of the majority. And you can be sure that fraud and corruption will be minimized.

Currently, an army of investigators and judges is needed to solve these crimes, especially minor ones, and moral education is a direct, but poorly fulfilled, responsibility of the education system.

Prison, as you know, does not correct (with rare exceptions), but cripples, but this is still poorly understood.

Novelty. Everything is quite trivial: in pedagogy, a lot has been known for a long time. But here's the problem: they are poorly or almost never implemented, future educators and teachers are not trained well enough, the educational process is overloaded with various kinds of detailed information that requires memorization, respectively, we get the younger generation that knows a little more, but we cannot say that it is more morally educated.

It follows from this text that all pedagogical terminology is not entirely specific, and it is not possible to clearly define scientific novelty as it is done in natural sciences.

The novelty of this article is that it proposes the creation of an integrated education system, in which, in addition to teaching various subjects and skills, there is a

mandatory target "strong" moral education, which is actually a preventive education to counteract possible violations of the law and not only. In addition, the reality of such an education system in modern conditions is substantiated not because its individual elements are not known, but because it does not exist on a massive scale.

Conclusion: It is proposed that the Ministry of Education recognize for all school graduates the need to radically improve education and ensure good breeding, by selectively reducing the subject load, mass "strong" and systematic teaching of morality in the education system.

Note. The concept of "strong" learning is similar to the concept of "strong intellect", and means learning with full assimilation of the material and memorizing it for many years after completion of training.

References

1. Olevsky V.A. Alternative school pedagogy of the 21st century. Urgent implementation. Pedagogical newspaper. 2019 <http://pedgazeta.ru/57412>
2. Olevsky V.A. The ideality of the training system (quite a possible option). Pedagogical newspaper. 2019 <http://pedgazeta.ru/57189>
3. Olevsky V.A. The benefits and negativity of the school "Social Studies". Pedagogical newspaper. 2019 <http://pedgazeta.ru/56627>
4. Olevsky V.A. Educational psychology, 7 (seven) problems. Pedagogical newspaper. 2019 <http://pedgazeta.ru/56414>
5. Olevsky V.A. The more knowledge the better. What for? Pedagogical almanac. 2020 <https://www.pedalmanac.ru/74600>

O'YIN MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR SHAXSINING SHAKLLANISHIDAGI O'RNI

Kenesbaev Ilham Qilishbay og'li
Atanazarova Ayjamal Shnibay qizi

Ajiniyaz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
Pedagogika va psixologiya tálím yo'naliishi 4-guruh talabalari

Annotatsiya: Bu maqolada o'yinlarning maktabgacha yoshdagি bolalar shaxsining shakllanishidagi orni haqida keng turda yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Krizis, "Ideal Men", "Odob -axloqli Men" va "Haqiqiy Men", "mos emaslik affekti", predmetli o'ylarinlar, Syujetli-rolli o'yinlar.

Ontogenetda 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan davr bog'cha yoshi davri yoki maktabgacha yosh davri bo'lib hisoblanadi. Bilamizki, bolaning yoshi ulg'ayib mustaqil harakat qilish imkoniyati ortgani sari, uning atirofdagi narsa va hodisalarga qarata dunyoqarashi ham kengayib boradi. Maktabgacha yoshdagи bolalarning yetakchi xizmat turi bu -o'yin. Bu yoshtagi bolalarning o'yinlarini uch turga bo'lish mumkin.

1. Predmetli o'yinlar (15-20 daqiqa davomida o'ynaladi)
2. Syujetli-rolli o'yinlar (30-60 daqiqa davomida o'ynaladi)
3. Qoidali o'yinlar (1 soatdan 2 kungacha davom etishi mumkin)

Bag'cha yoshidagi bolalarning o'yin xizmati masalasi asrlar davomida juda ko'p olimlarning diqqatini o'ziga qaratib kelmoqda. Bog'cha yoshidagi bolalar o'zlarining o'yin xizmati orqali rivojlanib borayotgan hayotimizning barcha tomonlaridan o'z ko'rinishin topadi.

Bola atiroftagi narsalar, voqeа va hodisalarni bilish jarayonlari orqali ular bilan to'g'ridan-to'g'ri amaliy munosabatda bo'lishga intiladi. Shu o'rinda bu narsani ham aytib o'tish joyizki, bola bilishga intilyotgan atrofdagi o'zi uchun tanish narsalarni bilibgina qo'ymay, balki kattalar uchun xos bo'lgan, o'zining kuchi ham yetmaydigan, no'tanish narsalar bilan ham amaliy munosabatta bo'lishga intiladi. Masalan: bola avtomashinani yoki tramvayni o'zi haydashni, haqiqiy otga minib yurgisi, uchuvchi bo'lib, samolyotda uchgisi va haqiqiy militsioner bo'lgisi keladi.

Lekin, bola o'zidagi bunday zarurliklarning bittasini ham haqiqiy yo'l bilan qondira olmaydi. Shu o'rinda savol tug'iladi. Bolalarning yosh davrlariga qarab ortib borayotgan turli zarurliklari bilan ularning cheklangan imkaniyatları o'rtasindagi qarama-qarshilik qanday yechiladi? Bu qarama-qarshilikni faqatgina bir xizmat turi orqali yani, bolaniň o'yin xizmati yordamidagina yechish mumkin:

Birinchidan, bolalarning o'yin xizmati qandaydir moddiy mashqlar ishlab shiqarishga qaratilgan xizmat turi emas. Shuning uchun bolalarni o'yinga boshlovchi sababning (motiv) kelib chiqishi natija bilan emas, balki shu o'yin jarayonidagi turli harakatlarning mazmun mohiyati bilan bog'liq.

Ikkinchidan, bolalar o'yin jarayonida o'z qo'lidagi narsalarni, o'zlarini qiziqtirgan, lekin kattalarga xos bo'lган narsalarga aylantirib, xoxlaganicha erkin xizmatda bo'ladi. Bolalarning o'yin xizmatlari ularning fizik va psixologik jihatdan ham shaxs sifatida shakllanishida katta ahamiyatga ega.

O'yin bolalar hayotida juda kop o'milli xizmat turi bo'lib, unda kattalarga xos bo'lган mehnat, turli narsalar haqida o'ylash, hayol surish, dam olish va mehribonlik jarayonlarining barchasi o'yin xizmatida aniq bo'ladi. Shuni ham aytib o'tish kerak, o'yin faqatgina tashqi olamdagи narsa voqeа va hodisalarni bilish vositasigina bo'lib qolmay balki qudiratli tarbiya qurolihamdir. Ijodiy va syujetli o'yinlarda bolaning barcha psixik jarayonlari bilan birgalikda ularning individual hususiyatlari shakllanadi.

Demak maktabgacha ta'lim-tarbiya ishlarida bolalarning shaxs sifatida shakllanishi ko'p jihatdan ularning o'yin xizmatini maqsadga muvofiq tarzda tashkillashtirish katta ahamiyatga ega. Shunday qilib o'yin bolalarning hayolidan yaratilgan narsa emas, aksincha bolalar hayolining yaratmasi, o'yin davomida paydo bo'lib rivojlanuvchi psixik jarayon. Shuni ham aytib o'tish joyizki, fan, texnika rivojlanib borayotgan bu davrda hayratlantiruvchi narsalar bolalarga bir ertakdek bo'lib ko'rindi. Natijada ular o'zlarining turli o'yin jarayonlarida ularga taqlid qilib (ya'ni analogik tarzda) har turli hayoliy narsalarni o'ylab topishi shuni anglatadi, ular o'zlarining har xil o'yin xizmatlarida faqat atirofda mavjud narsalardigina emas, balki shu paytagi zarurliklarini ham ifodalaydi.

Bolalarning o'yin xizmatida turli hayoliy va afsonaviy obrazlarni yaratishi odamning (shular qatorida bolalarning ham) tashqi muhitdagi narsa va hodisalarni ifodalovchi passiv narsa emas, balki aktiv, ijodiy, yaratuvchanlik jarayonlari ekanligidan xabar beradi

Bolalar o'yin xizmatining yana bir xususiyati bu o'yin jarayonida bolaning bajaruvchi harakatlari umumiy xarakterga ega bo'lishidir. Buni shunday tushinishimiz kerakki, bola o'zining har xil o'yinlarida faqatgina o'ziga tanish bo'lган yolg'iz bir haydovchining, shifokorning, militsioner, tarbiyachining, uchuvchining harakatlarinigina emas, balki umumiy yuqoridagi kasblarning harakatlarini ifodalaydi.

Bu yoshdagi bolalar o'z vaqtining ko'p bo'lagini o'yin bilan o'tkazadi, ayniqsa 3 yoshdan 6-7 yoshgacha o'yinlar ahamiyatli rivojlanish yo'li bo'lib xizmat qiladi.

Predmetli boshqarish va qoidali, shunigdek syujetli-rolli o'yinlar juda katta ahamiyatga ega. Bu yosh davrida barcha o'yin turlarini ko'rish mumkin.

Bu yosh davomida bolalarning quyidagi asosiy xizmat turlari ketma-ketlikda rivojlanib boradi: predmetli o'yin, guruhiy syujetli-rolli o'yinlar, individual

va guruhiy ijod, o'yin-musobaqa, o'yin-suhbat va shuningdek o'z-aro munosabat, uy mehnati bu yosh davrida bolaning shaxs sifatida har taraflama yetilishishida katta o'rinni egallaydi.

Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar asosan predmetli, har xil o'yinchoqlar bilan o'zlari yolg'iz o'ynaydi. O'zlarining predmetli va konstruktorli o'yinlarida esda saqlash, hayol va o'ylash diqqat kabi bilish jarayonlari, shuningdek o'z harakat qobiliyatlarini rivojlantirib boradi.

Albatta, turmush tajribalari va xizmatlari doirasi cheklangan kichik yoshdagi bolalar(ayrim kichik guruh bolalari ham) o'zlarining o'yinlarida konkret odamlarni va ularning harakatlarini ifodalaydi.

Orta va katta yoshdagi bolalarning o'yinlarida bo'lsa bunday obrazlar umumiy xarakterge ega bo'la boshlaydi. Asta sekin orta maktabgacha davrga borib o'yin guruhiy xarakterga ega bo'la boshlaydi va unga ko'proq bolalar qo'shila boshlaydi. Bolalarning individual xususiyatlarini, ularning guruhiy o'yinlar davomida nazorat qilish qulay. O'z o'yinlarida bolalar kattalarning predmetlariga munosabatlarinigina emas, balki ko'proq ularning o'z-aro munosabatlarini ifodalaydi va ularga taqlid qiladi.

Shuningdek, guruhiy o'yinlarda bolalar bir guruh odamlarning murakkab hayotiy xizmatlarini ifodalaydi. Masalan "Poezd" o'yinini olaylik.Bunda mashinist, paravozga ko'mir yoquvchi, provodnik, kontrolyor, kassir, stanciya xizmatkorlari va yo'lovchilar bo'ladi. Bolalarning mana shu kabi guruhiy o'yinlari artistlarning xizmatiga o'xshaydi.Sababi guruhiy o'yindagi har bir bola o'z rolini yaxshi bajarishga talpinishi bilan birga, o'yinning umumiy mazmunidan ham chetga chiqib ketmaslikka urinadi. Bu bo'lsa har bir boladan o'zining barcha qobiliyatini ishga solishini talab qiladi.

Belgili rollarga bo'lingan guruh o'yini, bolalardan qoidalarga bo'ysinishga va ayrim vazifalarni talab darajasida orinlashni talab qiladi. Shuning uchun bolalarning bunday guruhiy o'yinlari psixologik jihattan katta ahamiyatga ega. Sababi bunday o'yinlar bolalarda qattiyatlilik, yaxshi xulq- atvor va o'yin qoidalariiga, tartib-intizomga bo'ysingan va shu kabi ijobiy fazilatlarni tarbiyalaydi va rivojlantiradi.

Eng asosiysi bu o'yinlarda kattalarning predmetli dunyoga bo'lgan xulq-atvori takrorlanmaydi, odamlar orasidagi munosabatlarga, shulardan-rollarga imitatsiya(taqlid qilish) qilinadi. Bolalar shu munosabadlar asosida quriladigan rollarni va qoidalarni ajiratadi, o'yinda unga amal qilishga harakat qiladi. Bolalarning syujetli-rolli o'yinlari turli mavzularda bo'lib, bolalar ular bilan hayotiy tajribalar bilan tanishadi.

Bolalar tarafidan o'yinlar qayta bajaruvchi rollar- oilaviy, (ona, ota, kampir, ota va opa, bola va qiz) yoki tarbiyaviy (bog'chadagi tarbiyachi) yoki ertak qahromonlari (bo'ri, ayiq, tulki, quyon, echki)yoki kasbiy (shifokor, komandir, uchuvchi). Rollarni ijro etuvchilar kattalar yoki bolalar yoki ularning o'rnini bosuvchi o'yinchoqlar, qo'g'irchoqlar bo'lishi mumkin.

Shu yosh davrlarida rivojlanish zaruz bo'lgan ikki xizmat turining boshlanishi bilan bog'liq:mehnat va o'qish. Bu yoshdagi bolalarning o'yin, mehnat va o'qishni o'zlashtirishni ketma-ket bosqichini aniqlash mumkin, bunda *maktabgacha yosh davri*(3-4 yosh), *o'rta maktabgacha yosh davri*(4-5 yosh) va *katta maktabgacha yosh davri* (5-6 yosh).

Mana shu yosh davrlar psixologiyasida bolalarning psixologiyasi va xulq-atvoridagi, shaxs sifatidagi tez va sifatli o'zgarishlarni aniqlash uchun o'tkaziladi. Kichik maktabgacha yoshdagilar hali, qoidaga muvofiq, yolg'iz o'ynaydi. O'zlarining predmetli va konstrukturli o'yinlarida esda saqlash, o'ylash, ong va harakat qobiliyatlarini rivojlantirib boradi. Shu yoshdagi bolalar syujetli-rolli o'yinlarda odatta kundalikli hayotda ko'rindigan kattalarning harakatlarini qayta yuzaga chiqaradi..

Orta va katta maktabgacha yosh davrida syujetli-rolli o'yinlar rivojlanadi, lekin kichik maktabgacha yosh davridagi o'yinlarga kiruvchi mavzular, rollar, o'yin harakatlarining qoidalari bilan farqlanadi. Tabiyiy xarakterdagi ko'pgina predmetlar shartlilariga almashtiriladi va aniq o'yin boshlanadi.

Shuning bilan birga maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun o'yinlar ularni har taraflama rivojlantiruvchi asosiy qurol bo'lib hisoblanadi. Sababi bolalar juda qiziquvchan, diqqat e'tiborini bir narsaga uzoq vaqt jamlab tura olmaydigan xarakterga ega bo'ladi. Shuning uchun bolalarni o'yinlar yordamida tarbiyalab, ularni bilmli qilishga, odob-axloqqa, yoshi kattalarni hurmat qilishga shuningdek kichkinligidan qandayda bir kasbga yo'naltirishga ham bo'ladi.

Barchamizga ayonki bolalar tarbiyasida o'yinlar katta rol o'ynaydi. Haqiqattan ham bolalar o'yinlar natijasida atirofni taniy boshlaydi, his-tuyg'ulari payda bo'ladi, o'z-aro munosabatga kirishib, jamiyatga moslasha boshlaydi. Shuningdek o'yin xizmati davomida bolalar o'z harakatlarini kattalar harakati bilan taqqoslaydi, kattalardan o'rnak oladi. Shu sababli kattalar bolalarning harakati, xulq-atvorining rivojlanishida obiekt va subiekt hisoblanadi

Bolalar o'yinlari asosan 2 turga: ijodiy va qoidalari o'yinlar bo'lib bo'linadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning onggi va oylash doirasining kengayishida bu o'yinlarning o'rni alohida.

Ijodiy o'yinlarga bolalarning o'zlari o'ylab-topgan har xil o'yin turlari kiradi. Bu o'yinlar bolalarning o'ylash doirasini, ijodiy qobiliyatini rivojlanishida va o'z dunyosini yoritishga imkoniyat beradi. Qoidalari o'yinlar bo'lsa kattalar tarafidan yaratiladi va bolalar hayotiga olib kiriladi. Bu o'yinlarga harakatli, estafetalik, milliy va sport o'yinlari kiradi.

A.P.Usmanovning tadqiqotlariga ko'ra, rolli o'yin ishtirokchilarining soni, yoshi o'sgani sari o'yin vaqtini ham ortib boradi.

a) uch yoshli bolalar 2-3 dan guruhga birlashib, 3-5 daqiqa birga o'ynay oladi.

b) 4-5 yoshlilar guruhi 2-3 dan ishtirokchilardan iborat bo'lib, ularning sheriklekdagi xizmati 40-50 daqiqa davom etadi, o'yin davomida ishtirokchilar soni ham ortib boradi.

v) 6-7 yoshli bolalarda rolli o'yinni guruh bo'lib birga o'ynash fikri paydo bo'ladi, natijada dastlab rollar bo'lishtiriladi, o'yining qoida va shartlari tushintiriladi (o'yin davomida bolalar bir-birining harakatlarini diqqat bilan nazorat qilib boradi).

Plexanovning fikricha "*O'yinlar turli avlodlarni birlashtiruvchi va madaniy qadriyatlarni avlodtan-avlodga o'tkazuvchi zanjir bo'lib xizmat qiladi*" deb aytib o'tgan edi. Darhaqiqat o'yinlarni bolalar o'z tengdoshlari bilan bo'lgan o'z-aro munosabatlarni shakllantiribgina qo'ymay shuning bilan birga ota-onalari bilan birgalikda o'yinlar o'ynasa ular o'rtaida ham bir-biriga bo'lgan mehr-muhabbati ortib boradi.

Farzand ota-onasiga o'zidagi qiziqishlarini bildiradi. Bolalarning har taraflama chaqqon, o'z-aro munosabatga kirishuvchan bo'lib yetilishishida bizning o'yinlarimiz "Oq terakmi ko'k terak", "Asiq" kabilar katta ta'sir ko'rsatadi, sababi bu o'yinlarni ota-bobolarimiz ham sevib o'ynagan. Bu o'yinlarni o'ynash orqali bolalarda chaqqonlik, esda saqlash, mimika, gapirish, mehnatga qiziquvchanlik, jamoa bo'lib birga ishlashish kabi ko'nlikmalar rivojlanadi.

Katta bog'cha yoshidagi syujetli-rolli o'yinlar bolsa o'z mazmunining boyligi har xillogi bilan farqlanadi. Bu o'yinlar jarayonida bolalarda sardorlik qobiliyati yuzaga kela boshlaydi, ularda tashkillashtiruvchilik konlioma va mahoratlari rivojlna boshlaydi. Katta maktabgacha yoshdagi bolalar uchun musobaqalar katta ahamiyatga ega bo'lib, mana shu o'yinlarda g'olib bo'lishga harakat qilib oldiga talpinadi.

Katta bog'cha yoshidagi bolalarda konstruktorlik o'yinlari asta-sekinlik bilan mehnat xizmatiga aylanib boradi, o'yinda bola oddiy mehnat konlikma va mahoratlarini egallay boshlaydi, predmetlarning xususiyatlarini anglay boshlaydi.

3-7 yoshli bolalarning psixik rivojlanishida ijodiy xizmat turi bo'lgan musiqaning ham ahamiyati juda katta.

Oyin xizmati bolalarni insoniyatning jamiyat tajribasin egallahning aktiv formasi bo'lgan ta'lim xizmatiga tayyorlaydi. Inson darhol jamiyat tajribalsini o'zlashtirishga kirisha olmaydi. Jamiyat tajribasini aktiv egallah uchun inson dastlab yetarli darajada gapirish qobiliyatini egallagan bo'lishi, belgili ko'nlikma va tushunchalarga ega bo'lishi kerak. Bularga bola odatta o'yin xizmati orqali erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Z.Nishanova, G.Alimova "Bolalar psixologiyasi va uni óqitish metodikasi" T.: 2006
2. Z.T.Nishanova hám basqalar "Rivojlanish psixologiyasi pedagogic psixologiya" T.: 2018
3. Davletshin M.G. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. T. 2000

TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ ASARINING KOMIL INSON TARBIYASIDAGI O'RNI

Nizamova Malika Ravshan qizi

Nizomiy nomidagi TDPU Maxsus pedagogika va
inklyuziv ta'lim fakulteti 3-kurs talabasi

E-mail: malikanizamova47@gmail.com

Annotatsiya: Asardagi tarbiyaviy,axloqiy qarashlar.

Kalit so'zlar: Milliy ozodlik, milliy uyg'onish, tarbiya, axloq

TURKI GULISTAN OR THE ROLE OF HIS WORKS IN THE EDUCATION OF A PERFECT PERSON

Annotation: Educational moral views in the work

Keywords: National liberation,national awakening,education,ethics.

Har bir inson o‘z erki bilan inson bo‘lganidek, har bir davlat ham o‘zining mustaqilligi, ozodligi bilan to‘laqonli davlatdir. Jadid bobolarimiz bunday davlatni sog‘inib, yashab o‘tdilar. Shuning uchun ham ular ijodida istiboddan qonga to‘lgan dil navolarini va milliy ozodlikni sog‘ingan qalb sadolarini eshitish mumkin. Zero, deb nomlangan adabiyotning bosh g‘oyasi ham shu edi. Bu adabiyotning yirik siymolaridan biri Abdulla Avloniyidir. Ma’lumki, inson barkamolligi uning tashqi ko‘rinishiga qarab emas, balki uning ma’naviy dunyosiga qarab belgilanadi. Jamiyatning ravnaqi va kelajagi ana shu jamiyatda yashovchilarning ma’naviy kamolotiga bog‘liq. Zero, ma’naviy qashshoq insonlar bilan kelajagi porloq jamiyat qurib bo‘lmashligi hayot haqiqatidir. Barkamol insonni tarbiyalash vazifasi esa muayyan darajada maktab zimmasiga yuklatilgan. Demak, ertangi kun egalari bo‘lmish farzandlarimiz kamoloti ana shu ilm maskani bilan bog‘liq. Bas, shunday ekan, butun e’tiborimizni maktabda olib borilayotgan ta’lim-tarbiya ishiga qaratmog‘imiz lozim. Bu esa, asosan, tarbiyachi-murabbiyya, u olib borayotgan tarbiyaviy ish samaradorligiga bog‘liq. Odamlar o‘rtasida mehr-oqibat, haqiqiy insoniy munosabatlarni qaror toptirishda sinf tarbiyaviy soatlari xush-axloqlik tarbiyasi saboqlari – katta ahamiyatga ega. Zero, yaxshi tarbiya insonning bebaho boyligidir. Tarbiya vositasida yosh avlodni yetuk insonlar qilib yetishtirish oldimizda turgan eng dolzarb mavzulardan biridir.

1913-yilda quyida keltirilgan xususiyatlarni o‘zida jamlagan A. Avloniyining “Turkiy guliston yoxud axloq” asari bosilib chiqdi. Ushbu asarida Abdulla Avloniy tarbiyada bolalarning fikrini rivojlantirish masalasiga alohida e’tibor bilan qaratadi. 1913-yilda quyida keltirilgan xususiyatlarni o‘zida jamlagan A. Avloniyining

“Turkiy guliston yoxud axloq” asari bosilib chiqdi. Ushbu asarida Abdulla Avloniy tarbiyada bolalarning fikrini rivojlantirish masalasiga alohida e’tibor bilan qaratadi. Negaki, fikrlash iqtidorini egallash oliyjanob g‘oyalar tomon intilish demakdir. Shunday ekan, aqli odamning axloqsiz bo‘lishi qiyin. Avloniy ana shu ikki tushunchalarni yaqin va birlikda ko‘radi.

Nihoyat, gap xulqqa kelib taqaladi. Avloniy ularni ikkiga – yaxshi va yomon xulqqa ajratadi.

Muallifning fikricha, aql bilan ish tutish – fatonat, sa’y-g‘ayrat, shijoat, ilm egallash, pokizalik, nazokat, sabr-toqat, intizom, vijdonli bo‘lish, vatanni sevish, haq talablik, hamma narsaga ibrat ko‘zi bilan qarash, hayo, iffat, til odobi, idrok va zukko, munislik va xayrixohlik, sadoqat,adolat, muhabbat, afv kabilarni yaxshi xulq sirasiga kiritadi va mukammal inson uchun zarur bo‘lgan fazilatlar deb hisoblaydi. Adib bularning har biriga alohida-alohida to‘xtalib o‘tadi. O‘z mulohazalarini dalillash uchun Aristotel, Platon, Gippokrat, Sa’diy, Mirzo Bedil singari mashhur mutafakkirlarning fikrlarini keltiradi. Adib har bir axloqiy kategoriyaga o‘z munosabatini bildirganda, albatta, o‘sha fikrini ifodalovchi bayt yoki biror maqol-hikmat ilova qiladi.

“Bir tog‘ning o‘rnidan ko‘chib ketganini eshitsangiz, ishoningiz, ammo bir odamning xulqi boshqa bo‘ldi deb eshitsangiz ishonmangiz”, - demishlar.

Xulqi yomon yuz, ko‘zlidin na sud
Yuz, ko‘zli xulqni qilmas kashud
Xulq mariziga davo istasang,
Marg davosin berilur qistasang.
Xulqi yomoning keturar ko‘p zarar
Xulqing o‘zi boshingga kaltak urar.
Xulqi fano bo‘lsa degil alhazar,
Xor-u zalilikda qolur darbador.

Axloq ulamosi insonlarning xulqlarini ikkiga bo‘lmishlar Agar nafs tarbiyat topib, yaxshi ishlarni qilurga odat qilsa, yaxshilikg‘a tavsif bo‘lub “yomon xulq” deb atalur. Avloniy shu bilan birga, so‘zning inson qadr-qimmatini belgilashdagi roliga umuminsoniy qarashlardan kelib chiqib baho beradi. So‘zning ma’nosiga alohida diqqat qildi. Til va so‘z odobiga oid umuminsoniy fikrlarni davom ettirdi. “So‘z insonning daraja va kamoloni, ilm va fazlini o‘lchab ko‘rsatadurg‘on tarozisidur. Aql sohiblari kishining dilidagi fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qimmatini so‘zlagan so‘zidan bilurlar...”

“Agar so‘z aql va hikmatga muvofiq bo‘lib, o‘ziga yoki eshituvchiga bir foyda chiqaradurg‘on bo‘lmasa, asalarilar orasidan go‘ng‘illab yurgan qovog‘arilar kabi quruq g‘o‘ng‘illamoq faqat bosh og‘rig‘idan boshqa narsa emasdir. Boshimizga keladirg‘on qattiq kulfatlarning ko‘pi yumshoq tilimizdan keladur. Shuning uchun

“Ko‘p o‘yla, oz so‘zla” – demishlar”. Insonni bezaydigan sifatlar ko‘p. Chinakam inson yalqovlik va dangasalikni o‘ziga nomus deb biladi. Yoshligidan ilm, ma’rifatga, hunar va san’atga mehr qo‘yadi. Mehnatning aybi yo‘q. Qora ishchi bilan olimning zahmati ko‘rinishidangina tafovutli. Ammo ularning har ikkisi ham mehnat qiladi. Mehnat bilan kun kechirish esa buyuk saodat. Aksincha “... bu ko‘murchilik, bu temirchilik – manga munosib ish emas, deb dangasalik qilub, ishsiz yursa, zo‘r ayb, g‘ayratsizlikdur...”

Shuningdek, inson moddiy ne’matlarni yaratishdan tashqari, ularning qadriga ham yeta bilmog‘i kerakligi haqida to‘xtaladi.. Bular o‘zaro juda yaqin, biri ikkinchisidan kelib chiqadurg‘on tushunchalardir. Kimki bir parcha nonni mehnat bilan topsa, uning qadriga ham yetadi. Bu haqda adib quyidagi fikrni bayon etgan edi: “Iqtisod deb pul va mol kabi ne’matlarning qadrini bilmakni aytilar. Mol qadrini biluvchi kishilar o‘rinsiz yerga bir tiyin sarf qilmas, o‘rni kelganda so‘mni ayamas. Saxovatning ziddi baxillik o‘ldig‘i kabi iqtisodning ziddi isrofdir...”.

Avloniyning “Hayo dilni ravshan qiladirg‘on bir nurdirkni, inson har vaqt shul ma’naviy nurning ziyosiga muhtojdir” degan fikri ham o‘rinli bo‘lib, unda ma’naviy nurning ziyosi xususida to‘xtaladi. Zero, Hazrati Luqmon: “Iffat nomusning eng mahkam suyanchig‘idir. Nafsning hujumiga shul quvvat ila muqobala qilinur” deydi.

Avloniy xulq haqida so‘z yuritganda masalaga shunchaki, umumiyl yondashib qo‘ya qolmay, balki aniq gap aytishga intiladi. Adibning diqqat markazida hamisha insoniylik mezoni turadi. Bu mezon esa doimo keng omma manfaatlari nuqtayi nazarini ifoda etadi. Darhaqiqat, Avloniy satrlaridagi yozuvlar shunchaki siyoh emas, balki uning qorachig‘idan qora qon bo ‘lib oqqan ko‘zyoshlaridir.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq A.Avloniy
2. Ziyocom.kutubxonasi
3. Jadid adabiyoti
4. Vikepediya ma’lumotlari

XX ASRDA QORAQALPOG'ISTONDA PEDAGOGIK QARASHLARNING RIVOJLANISHI

Abdieva Saltanat

*Ajiniyoz nomidagi NDPI Ta'lismuassasalarini
boshqarish yo'nalishi 2-bosqich magistranti
Ilmiy rahbar t.f.d. A. Djumashev*

Annotatsiya. Mazkur maqolada pedagogikaning mazmun mohiyati hamda XX asrda Qoraqalpog'istonda pedagogik qarashlarning rivojlanish jarayoni yoritib berilgan. Bugungi pedagogikaning oldida turgan muammolar ochiqlangan.

Kalit so'zlar: pedagogika, ustoz, o'quvchi, ta'lif, tarbiya, xalq pedagogikasi, ta'lif tizimi

Abstract. This article describes the essence of pedagogy and the process of development of pedagogic views in Karakalpakstan in the 20th century. The problems facing today's pedagogy are revealed.

Key words: pedagogy, teacher, student, education, upbringing, folk pedagogy, educational system

Абстрактный. В данной статье описывается сущность педагогики и процесс развития педагогических взглядов в Каракалпакстане в XX веке. Выявляются проблемы, стоящие перед современной педагогикой.

Ключевые слова: педагогика, учитель, ученик, образование, воспитание, народная педагогика, система образования.

Pedagogika atamasi qadimiy bo'lib, "bola yetaklovchi" degan ma'noni bildiruvchi grekcha "paydogogos" so'zidan kelib chiqqan. Tarixiy manbalarning ko'rsatishicha, qadimgi Yunonistonda o'z xo'jayinining bolalarini sayr qildirgan, ehtiyoq qilgan, harbiy mahoratni o'rgatgan tarbiyachini, ya'ni qullarni "pedagog" (bola yetaklovchi) deb atashgan. Keyinchalik esa, maxsus o'qitilgan va pedagoglikni o'ziga kasb qilib olgan kishilarni pedagog deb atay boshlashgan¹.

Pedagogika (yun. paidagogike) — tarbiya, ta'lif hamda ma'lumot berishning nazariy va amaliy jihatlarini o'r ganuvchi fanlar majmuasi². Pedagogika institutlari va ayrim boshqa o'quv yurtlarida mutaxassislik dasturi asosida o'r ganiladigan o'quv predmeti ham Pedagok deb yuritiladi. Pedagogika fan sifatida bola tarbiyasining nazariy asoslari bilan shug'ullangan. Zamonaviy Pedagok bolalar bilan birgalikda kattalarning ham o'quv-tarbiyaviy, madaniy hamda ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasi bilan

¹ Axmedova M.E Pedagogika nazariysi va tarixi" o'quv qo'llanma T:2011 y

² M.To'xtaxo'jayeva "Pedagogika" T., "O'qituvchi" 2010 y

shugullanishni ko'zda tutadi. O'zbekiston Respublikasida Pedagogika barkamol shaxs ma'naviyatini shakllantirishning asosiy vositasi sifatida yondashiladi.

Pedagogika tarbiya jarayonining qonuniyatlari, tarkibi va uni tashkil etish mexanizmlarini taddiq etadi, tarbiyaviy va o'quv ishlarining mazmuni, tamoyillari, ularni tashkil etish shakl, usul hamda yo'sinlarini belgilab beradi.

Shaxsni tarbiyalash, o'qitish va shakllantirish Pedagogikaning asosiy funksiyasi hisoblanadi. Shaxsni tarbiyalash Pedagogikadagi asosiy tushuncha sanalib, oila va jamiyatning barkamol shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan birgalikdagi faoliyatini anglatadi. Tarbiya yordamida inson shaxsining ma'naviy jihatlarini qaror toptirish ko'zda tutiladi. Dunyoqarash, e'tiqod, ezbilik, go'zallik, yaxshilik, adolatga doir qarash va ko'nikmalarning shaxs sifatiga aylantirilishi tarbiya yordamidagina amalga oshiriladi. Insonlar orasida yashash, hayotda turmush kechirish va faoliyat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisini o'zlashtirishga qaratilgan faoliyat o'qitish tushunchasini ifoda etadi. O'qitish natijasida shaxs zaruriy bilimlar bilan ta'minlanib, kelgusida turli darajadagi maxsus ma'lumotni olish imkoniga ega bo'ladi.

Pedagogika fani shaxsni rivojlantirishning ikki muhim jihat - uni o'qitish va tarbiyalashga asosiy e'tiborni qaratganligi bois didaktika (ta'lim nazariyasi) va tarbiya nazariyasi fanning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi³. Ko'p sonli fanlaming ta'limni o'rganishdagi ijtimoiy fenomeni sifatidagi hissasi shubhasiz bebaho va zarurdir. Biroq bu fanlar insonning kundalik o'sishi va rivojlanish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan, o'qituvchi bilan o'quvchining o'z rivojlanish davridagi o'zaro munosabatlari va unga mos institutaviy struktura bilan bog'liq ta'limning tub jihatlariga daxl qilmaydi. Va bu tamomila haqqoniy, chunki maxsus jihatlarni o'rganish obyekt (ta'lim) ning shunday qismini aniqlaydiki, buni maxsus fan pedagogika o'rganishi kerak. Pedagogika - bu aniq maqsadlar asosida maxsus ijtimoiy institutlar (oila, ta'lim va madaniy tarbiyaviy muassasalar) da tashkil etilgan aniq yaxlit pedagogik jarayon sifatidagi ta'limdir⁴.

Pedagogika bu holda o'zini pedagogik jarayon (ta'lim)ning mohiyati, qonuniyatlari, tendensiyalari va rivojlanish istiqbollarini o'rganuvchi fan sifatida namoyon etadi. Shu asosda pedagogika uni tashkil etishning nazariya va texnologiyalarini, pedagog faoliyati (pedagogik faoliyat) ning shakli va rivojlantirish metodlarini va o'quvchilarining turli ko'rinishdagi faoliyatlarini, shuningdek ularning o'zaro munosabatlaridagi strategiya va usullarini ishlab chiqadi.

Pedagogika fani shaxsni shakllantirishdek ijtimoiy buyurtmani bajarish asosida jamiyat taraqqiyotini ta'minlashga alohida hissa qo'shami. Pedagogika fani maqsadi va vazifalarining belgilanishida ijtimoiy munosabatlar mazmuni, davlat va jamiyat

³ R. Mavlonova "Pedagogika" T., "O'qituvchi" 2004 y

⁴ X.Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. -T."Sano standart"nashiriyoti. 2017.

qurilishi, uning hayotida yetakchi o'rin tutuvchi g'oyalar mohiyati muhim ahamiyatga ega.

XIX asr oxiri XX asr boshidagi qoraqalpoq xalqining madaniy-tarixiy hayotida ma'rifat va ta`lim-tarbiya masalasi uziga xos xususiyatlari bilan namayon bulib, bu davrda yoshlarni milliy ozodlik ruhida tarbiyalash asosiy vazifa buldi. Bu masalaning yuzaga kelishi XIX asrning sunggi choragidagi va XX asr boshidagi ulkada joriy bula boshlagan ijtimoiy uzgarishlarga, milliy uyg'onishga, jadidchilik harakatlariga borib taqalar edi.

Qoraqalpog'istonda Rossiya xukumronligi urnatgash (1873) mustamlakachilikning harbiy-administrativ boshqarish tizimi urnatildi. Jipslashgan qoraqalpoq xalqi Amudaryoning ung va chap qirg'ogiga bulinib, bir-biridan bulak bulgan ikki boshqaruv hokimiyatiga tegishli buldi. Lekin chor Rossiyasining mustamlakachilik maqsadlariga qaramay, ulkada kapitalistik qatnashlar urin olib, ijtimoiy ishlab chiqarish kuchlari osha boshladи. N.I.Ia'minskiy uslubidagi turkiy xalqlarni ruslashtirishni nazarda tutgan maktablar tashkil qilina boshladи. 1874 yili Petro-Aleksandrovskiyda (Turkulda) ikki bilim yurti va ikki mahalliy rus maktabi (1878 y) ochildi. Chor Rossiyasi padshosi siyosiy mahbuslarni surgun qilgan joylardan biri-Muynoq tumani bulib, bu erda XX asr boshida 230 rus oilasi yashagan. Ular uzlarining erkinlik, demokratiya, padsho Rossiyasiga norazilik qarashlari bilan ajralib turgan.

Mustamlakachilikdagi tarixiy sharoit qoraqalpoq ziyorilari orasida ham xalqning ma`naviy dunyosini uzgartirish, ularni uyg'otish zarur. Shu yul bilan chor Rossiyasi zulmidan qutulish mumkin, degan muommani yuzaga keltirdi. Ular bu muommani ma'rifiy ishlardan boshlash zarurligini, ma'rifat yordamida xalqning milliy ongini uyg'otib, uzligini anglashni shakllantirish muhimligini yaxshi tushundi. Buni jadid maktablari va jadidchilik harakati amalga oshirishi mumkin ekanligini payqagan qoraqalpoq ziyorilari XIX asr oxiri XX asr boshida yangi usul-jadid maktablariga intildi. Qoraqalpog'istonda jadidchilik shakllanishining uch omili: panisla-mizm, tatar jadidchiligi va demokratik ma'rifiy g'oyalar (Kunxoja, Ajiniyoz, Berdaq, Utеш va h.) asosida yuzaga kelganligi ma'lum.

XX asr boshida Qoraqalpog'iston hududida 20 ga yaqin jadid maktablari faoliyat kursatib, yoshlarni aniq bilimlar berish orqali siyosiy-ma`naviy tomondan tarbiyalashga, xalqning mustamlakachilik-dagi hayoti og'ir kechayotganligini tushuntirishga, ularni milliy mustaqillik ruhida shakllantirishga harakatlar ishlangan.

XIX asr oxiri XX asr boshidagi milliy uyg'onish davri ta'sirida ilmli, bilimli bo'lish bilan istiqlol uchun kurashishni o'zaro bog'liq deb tushungan S.Majidov ma'rifat yordamida bu maqsadga erishish yo'li tezlashishini yaxshi tushundi. Shu bois yoshlarning ta'lim olishiga va uning mazmunini sifatli qilish zarurligiga katta ahamiyat berib, pedagogikaning yangicha milliy madaniyatga bog'langan yo'nalishlariga qo'l

urdi. «O‘qi, ol bilim, nodonlikdan qoch, kurash, maqsadinga etib olasan» deb ijtimoiy hayotning takomillashish asosida ilm, fan turganligini nazarda tutib, hayot qiyinchiliklarini engib, dunyo, jamiyat qonunlarini bilib, ozod bulishing, «qutilmaging o‘qishdandir» dedi⁵. Yoshlarga qarata: «tolibi bo‘l bilim-hunar», -deb ilm va hunar egallahni barobariga talab qildi. «Hunar xotiradan o‘chmasligini, asl hunar yo‘qolmasligini» va bilim bilan hunarnitexnik tushunchalarni biri ikkinchisini to‘ldiruvchi, bog‘lanishga ega deb, hunar deganda o‘sha davrdagi texnik bilimlarni nazarda tutgan. Ta’limni politexnik bilimlar bilan bog‘lab olib borishni, ilm asosida hunarni, texnikani boshqarish amalga oshishini, politexnik ta’lim usha davrdagi yoshlar uchun eng zarur ta’lim sohasi ekanligini tushuntirdi. Bu borada maxsus: «Hunar-bilim», «Hunar» nomli she’rlarini yaratdi. Hunarmand mehnati yaratuvchilik, ijodiy xususiyatlarga ega deb bilgan S.Majidov yoshlar hunarni-politexnik bilimlarni rivojlantirib, takomillashtirishi, ular: «turli hunarlar chiqarib, tukkan sari» ijodiy takomillashish yuz berishini ta’kidladi. Hunar egalari elning farovonligini ta’minkaydi. «Hunar tukib yarqiragan, chin dildan xizmat qilgan odamlar» elning kelajagi uchun «yorug‘ligini qo‘shib turadi» deb, yoshlarning politexnik ta’lim egallahiga, ayniqsa katta ahamiyat berdi. Buning davr talabi hisoblanishini tushuntirdi va qaysi bir narsani ilmiy, nazariy tomonidan to‘ldirsa, hunar uning amaliy jihatini yuksaltirishini:

Ishda ilm kerak, ilmda hunar,

Ilmsiz ish unmas, u darrov sunar.

Deb hunar bilan ilmni birga rivojlanuvchi nazariy va amaliy tomonlar deb baholadi. Shu tushunchalaridan kelib chiqib S.Majidov bilim va hunarni (politexnik ta’limni), xalq hayotining farovonligini ta’minlovchi omillar deb hisobladi⁶.

Bilim va ilmni yoshlarga puxta va mazmunli o‘rgatish uchun maktabda o‘quvchilarining bilimni o‘zlashtirish uslublariga e’tibor berish kerak degan S.Majidovning pedagogik qarashlarining katta qismini ta’lim berish uslublari haqidagi fikrlari egalladi. S.Majidov «Alifbe», «O‘qish kitobi», «egedelar (kattalar) savodi» va boshqa darsliklarini yozganida, o‘z davridagi didaktik tamoyillarining eng mukommallarini mohirlik bilan o‘rganib, o‘qituvchilar bilan o‘quvchilarining xohish-ehtiyojlarini qondirishga harakat qilgan. «Alifbe» tafakkur olamida maqul ko‘rilgan tovush usuli bilan yozildi. Bu uslub so‘z uslubiga nisbatan dastlab murakkabdek ko‘rinsa ham, foydali ekanligi sinalgan, deb darslikning zamonaviy talab darajasida tuzilganligini qayd etdi. Muallif darsliklar yordamida o‘quvchilarining nafaqat savodliligini oshirishga, shu bilan birga ongini, siyosiy bilimliligini takomillashtirishga intilgan. Bu esa o‘z navbatida qoraqalpoq pedagogikasining rivojiga ulkan hissa bo‘ldi.

⁵ Seytmuratov Q. S.Majidovning pedagogik qarashlari.//«Xalq ta’limi». 2005. №1. 130-132- betlar. (uzbek tilida)

⁶ Seytmuratov №, Aleu’ov U. A. Avloniydin’ ta’lim-ta’rbiyaluq ko‘z-qaraslaru ha’m S.M1jiytov. //Vestnik Karakalp. otdeleniya AN RUz. Nukus, 2003. №6.-B. 334-335. (qoraqalpoq tilida)

Yana bir jihat XX asr qoraqalpoq xalq pedagogikasining rivojlanishi bilan ham bog'liq. Qoraqalpoq xalq pedagogikasi dunyo xalqlari tarbiya unsurlari ta'sirida shakllangan. Inson xilqati bir bo'lgani uchun uni tarbiyalash muammolari ham mushtarak bo'ladi. Bu masalada hamma xalqlar, elatlar bir biriga ustoz, bir biriga shogird bo'ladi.

Qoraqalpoq xalqining o'ziga xos boy og'zaki ijodi va adabiyoti bor. Xalq og'zaki ijodi XX-asrgacha rivojlanib, yozma adabiyot deyarli rivojlanmadi. Buning sababi shuki, qoraqalpoqlar uzoq asrlar davomida yarim ko'chmanchilik hayotini boshdan kechirdilar. Mehnatkash xalqning orzu-istiklari folklor asarlarida o'z ifodasini topar edi. Xalq og'zaki ijodining bizgacha yetib kelgan namunalari orasida ajoyib lirik mazmundagi she'riy asarlarni ham, salmoqdur qahramonlik dostonlarini ham uchratish mumkin. Qoraqalpoq dostonlarining deyarli hammasida vatanparvarlik g'oyalari va demokratik motivlar yorqin ifodalangan.

Xalq pedagogikasi tarixiy tushuncha sifatida hozirgi kunda ham zamon talablariga mosravishda boyib bormoqda va jiddiy amaliytarbiyaviy ahamiyat kasb etmoqda.O'tgan asrlarda qoraqalpoq xalq pedagogikasi ham huddi o'zbek xalq pedagogikasi kabi rivojlanish va tanazzul bosqichlarini boshdan kechirdi. Xalq pedagogikasida xalq maqollari o'ziga xos vazifa bajarib keldi. Xalq maqollarda xalqning donoligi, turmush mashaqqatlariga bardosh berish yo'llari, xavf-hatardan ogohlantirish, jamiyatda kishining o'zini tutishi, yomonlik qilmaslik, mahalla va oila manfaati uchun kurash munosabatlari, jamiyatda yomon otliq bo'lishning zarari, mehnatsevarlikning foydalarli, jamiyatda obro'-e'tibor topish uchun kurashish lozimligi kabi maslahat va nasihatlar, tanbihlar aytilgan bo'ladi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, XX asr xalq qoraqalpoq pedagogikasi uchun muhim davr bo'ldi, bir tomonidan mustamlakachilar tomonidan xalqning o'zligidan yiroqlashtirish maqsadi amalga oshirilgan bo'lsa, bir tomonda xalq ziyyolilari tomonidan milliy o'zliklarni saqlagan holda pedagogik qarashlarni rivojlantirish jarayoni bilan o'tdi.

Adabiyotlar:

1. Axmedova M.E Pedagogika nazariyasи va tarixи" o'quv qo'llanma T:2011 y
2. M.To'xtaxo'jayeva "Pedagogika" T., "O'qituvchi" 2010 y
3. R. Mavlanova "Pedagogika" T., "O'qituvchi" 2004 y
4. X.Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasи va amaliyoti. Darslik. -T."Sano standart"nashiriyyoti. 2017.
5. Seytmuratov Q. S.Majidovning pedagogik qarashlari.//«Xalq ta'limi». 2005. №1. 130-132- betlar. (uzbek tilida)
6. Seytmuratov №, Aleu'ov U. A. Avloniydin' ta'lim-ta'rbiyaluq ko'z-z-qaraslaru ha'm S.M1jiyтов. //Vestnik Karakalp. otdeleniya AN RUz. Nukus, 2003. №6.-B. 334-335. (qoraqalpoq tilida)

MATERIKLAR VA OKEANLAR TABIIY GEOGRAFIYASI KURSINING JOY NOMLARIDAN FOYDALANIB O'QITISH TEKNOLOGIYASI (Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi kursining dunyo okeani va uning qismlari mavzusida joy nomlaridan foydalanib o'qitish texnologiyasi)

Arabboyev Asliddin Rafiqjon o'g'li

Andijon davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti

+998901403566

Annotatsiya

Toponimika yunoncha topos — joy va onoma (yoki onima) — nom so'zlaridan tarkib topgan. Joy nomlari toponimiylar bir necha turlarga bo'linadi. Masalan, gidronomiya, oronomiya, oykonomiya, polinimiya, urbanonomiya, mikrotoponimiya kabi turlarga bo'linadi. Ushbu maqolamiz orqali Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi kursining Dunyo okeani va uning qismlari mavzusida joy nomlaridan foydalanib o'qitish texnologiyasi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Adriatika dengizi, Azov, Arafur, Barens, Kara, Karib, Kaspiy, Laptevlar

KIRISH

O'quvchilar mакtab ostonasiga qadam qo'yib boshlabdiki, tevarak-atroflaridagi yerlarni, daryo-ko'llarni, tog'laru qir-adirlarni, o'tloq yaylovlarni ma'lum bir nom bilan atashganlar. Toponimika yunoncha topos — joy va onoma (yoki onima) — nom so'zlaridan tarkib topgan. Joy nomlari toponimiylar bir necha turlarga bo'linadi. Masalan, gidronomiya, oronomiya, oykonomiya, polinimiya, urbanonomiya, mikrotoponimiya kabi turlarga bo'linadi.

Geografiya ta'limi tizimida o'zi yashayotgan joyining ma'nosini, uning joylashgan o'rnnini bilib olish juda muhim hisoblanadi. Ta'limning ushbu texnologiyasi o'quvchilarda Vatanni sevish, uni ardoqlash, o'z tarixini bilish kabi muhim tushunchalarni shakllantirish hamda milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalashda o'ziga xos muhim ahamiyat kasb etadi. Mavzuning dolzarblik darajasi ham ana shundadir.

ADABIYOTLAR TAHЛИILI VA METODOLOGIYA

Maktablarda 2022-2023 o'quv yilidan boshlab o'qitila boshlayotgan 7-sinf Materiklar va Okeanlar tabiiy geografiyasi kursining mualliflari M. T. Mirakmalov SH. M. Sharipov M. M. Avezov M. T. Hojiyevalardir.

Ushbu fan o'quvchilarni Yer haqidagi tushunchalarini mustahkamlaydi. Yer yuzidagi yirik suvlik va quruqliklar — materiklar va okeanlar, ularning qismlari tabiat, ularda sodir bo'layotgan o'zgarishlar bilan tanishtiradi.

Ushbu darslikni o'qish orqali siz materiklar va okeanlarni o'rgangan sayyoohlarning faoliyati, turli materiklar iqlimi, suvlari, tabiat zonalari, okeanlar va ularning yirik qismlari — dengizlar, qo'litiq va bo'g'izlar tabiatini bilan yaqindan tanishtiradi. Ularni bilish, tahlil qila olish esa yurtimiz tabiatida kuzatilayotgan o'zgarishlarni tushunishingizda, ularni tahlil qilish orqali kelajakda Yer yuzi va

mamlakatimiz tabiatida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan ekologik va geoekologik muammolarning oldini olishga qaratilgan ishlarda faollikka chorlaydi.


Darslik beshta bobdan iborat bo'lib, to'rtinchi bobni o'rganish davomida o'quvchilar Dunyo okeani, dengizlar, ulardag'i suvning xususiyatlari va materiklar tabiatи shakllanishida okeanlarning ahamiyati haqida tushunchalar beradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA


Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi kursining Dunyo okeani va uning qismlari mavzusida toponimikaning gidronomiya yo'nalishi bo'yicha o'qitish texnologiyasi quyidagicha olib boriladi.

1. Quyidagi xaritalarda raqamlarda tasvirlangan dengizlarni nomini toping.

Dunyoning tabiiy xaritasida beshta havzani ajratish mumkin. Ular Tinch, Atlantika, Hind, Shimoliy Muz okeani havzalari va berk havzalardir. Daryo qaysi havzaga o'z suvini quysa, o'sha havzaga tegishli bo'ladi (31-rasm).



Materiklar yarimshari



Активация Windows
Чтобы активировать Windows необходимо вставить к параметрам компьютера.

Masalan; quyidagi jadvalda 9 raqami bilan berilgan dengizning nomi Adriatikadir.

Toponimikasi. O'rta dengizning bir qismi hisoblanadi. Italiyaning shimoliy-sharqiy sohilidagi Adriya shahri nomi bilan bog'liq. Yugoslav tillarida Yadran dengizi deyiladi.

Xaritada 15 raqami bilan Azov dengizi tasvirlangan.

Toponimikasi. Don daryosining quyilish joyida bo'lgan Azov shahri nomidan olingan. Bu dengizning qadimgi nomi Meoti hisoblanadi.

Xaritada 51 raqami Hind okeani havzasiga qarashli Arafur dengizi tasvirlangan. Toponimikasi. Hind okeanining sharqiy qismida joylashgan. Indoneziyadagi islam diniga o'tmagan Arafura qabilasi nomidan olingan.

Xaritada 61 raqami bilan Shimoliy Muz okeani havzasiga qarashli Barens dengizi tasvirlangan. Toponimikasi. Shimoliy Muz okeanining g'arbiy dengizi hisoblanadi. Ilgari Shimoliy dengiz, Moskva dengizi, Muz dengizi nomlari bilan yuritilgan. XVI asrda Golland sayyohi V. Barens bu dengizda suzganida halok bo'lgan. Nemis geografi A. Tetermen uni 1852-yilda Bares dengizi deb atadi.

Xaritada 62 raqami bilan Shimoliy Muz okeani havzasiga qarashli Kara dengizi tasvirlangan. Toponimikasi: Shimoliy Muz okeanining bir qismi. Shu dengizga quyiladigan Kara daryosi nomidan olingan. Daryoning o'zi nemischa Arayaga - "egri suv", "jarlik" deyiladi, chunki u chuqurlikda ilon izi bo'lib oqadi.

Boshqa dengizlar ham xuddi shunday texnologiya bilan davom ettiriladi.

Chegaralar: ----- — okeanlar; — — dengizlar.

Atlantika okeani dengizlari: 1. Boltiq. 2. Shimoliy. 3. Irlandiya. 4. O'rta. 5. Alboran. 6. Balear. 7. Liguriy. 8. Tirren. 9. Adriatika. 10. Ioniya. 11. Egey. 12. Krit. 13. Marmar. 14. Qora. 15. Azov. 16. Karib. 17. Sargasso. 18. Skosha. 19. Ueddell. 20. Lazarev.

Tinch okean dengizlari: 21. Bering. 22. Oxota. 23. Sharqiy (Yapon). 24. Sariq. 25. Sharqiy Xitoy. 26. Janubiy Xitoy. 27. Filippin. 28. Sulu (Sibiryan, Basayas, Samar, Samotor, Mindanao dengizlari bilan). 29. Sulavesi. 30. Moluk. 31. Xalmixer. 32. Seram. 33. Yava. 34. Bali. 35. Flores. 36. Savu. 37. Banda. 38. Yangi Gvineya. 39. Solomon. 40. Marjon. 41. Fiji. 42. Koro. 43. Tasman. 44. Ross. 45. Amundsen. 46. Bellingsgauzen.

Hind okeani dengizlari: 47. Qizil. 48. Arabiston. 49. Andaman. 50. Timor. 51. Arafur. 52. Dyurvill. 53. Mouson. 54. Deyvis. 55. Hamdo'stlik. 56. Kosmonavtlar. 57. Riser-Larsen.

Shimoliy Muz okeani dengizlari: 58. Grenlandiya. 59. Norvegiya. 60. Oq. 61. Barends. 62. Kara. 63. Laptevlar. 64. Sharqiy Sibir. 65. Chukotka. 66. Bofort. 67. Baffin.

Karib dengizi - Markaziy Amerikada. Indeyslarning Karib qabilasi nomidan olingan.

Kaspiy dengizi - MDH hududidagi dengiz. Uning nomlari ko'p. Dengizning Kavkaz tomonida Kaspiy qabilasi yashagan. Ushbu etnomim butun dengizning nomi bo'lib qolgan.

Laptevlar dengizi - Shimoliy Muz okeanining sharqiy qismida joylashgan. Uni 1733-1741- yillarda aka-uka Dimitriy va Xariton Laptevlavlар tekshirgani uchun shunday nom berilgan.

Niguriya dengizi - O'rta dengizning bir qismi hisoblanadi. Nigur xalqining nomidan olingan.

Marmar dengizi - Qora dengiz bilan Egey dengizi orasidagi dengiz hisoblanadi. Qadim zamonda yunoncha Protonsida (qora dengiz yoni) deb atalgan. Dengiz o'rta dengizi oroldan oq marmar qazib olingan. Keyinchalik orol ham dengiz ham Marmar deb atalgan.

Oq dengiz - Yevropaning shimolida joylashgan, Shimoliy Muz okeanidagi dengiz. Dengiz yil davomida 200 kun oppoq muz bilan qoplangan bo'ladi. Shuning uchun Oq dengiz deb atatalgan.

Ross dengizi - Antarktida sohilida joylashgan. Ingliz sayyohi Jems Ross birinchi bo'lib tekshirgan va uning ismi bilan atalgan.

Sargasso dengizi - Atlantika okeanining bir qismi, suv o'tlari ko'pligi sababli kemada suzish qiyinlashadigan "dengiz". Portugalcha Sargasso - "uzun", ya'ni pufaksimon degan so'zdan olingan.

Sariq dengizi - Xitoyning sharqidagi dengiz. Daryo oqizib keltirgan tog' turpoq, ya'ni loyqa suvning rangiga nisbatan berilgan.

**O'ZBEKISTONNING IQTISODIY VA IJTIMOIY GEOGRAFIYASI
KURSINI JOY NOMLARIDAN FOYDALANIB O'QITISH
TEXNOLOGIYASI**

(O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi kursining o'zbekistonning regional tavsifi bobida joy nomlaridan foydalanib o'qitish texnologiyasi)

Arabboyev Asliddin Rafiqjon o'g'li

Andijon davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti

+998934195436

Annotatsiya

Hozirgi kunda ta'lif tizimini tubdan isloh qilish zamon talabiga aylanib bormoqda. Ushbu rivojlanish o'qituvchini o'z ustida ishlashiga, o'quvchini esa intiluvchanlikka, tashabbuskorlikka, voqeа-xodisalarga o'z munosabatlarini bildirishga hamda keng fikrlashga undaydi. Ushbu maqolamiz orqali Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi fanining bir sohasi bo'lmish O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi kursining O'zbekistonning regional tavsifi bobida joy nomlaridan foydalanib o'qitish haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: Andijon, Namangan, Farg'ona, Toshkent, Sirdayo, Jizzax

KIRISH

Bugungi kunda bizning ta'lif tizimi ham rivojlanayotgan davlatlar qatorigakirish uchun juda katta amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Interaktiv metodlar – bugungi kun talabidan kelib chiqqanholdao'quvchilarga sifatlari ta'lif berish va ularni faollikka, tashabbuskorlikka o'rgatadigan, zamonaviy yondashgan holda fanlarni chuqur o'rganishgayordamberadigan metodlardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida yoshlarning ta'lif-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasining prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan "Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljalangan Taraqqiyot strategiyasi" loyihasining 4-bandisi "Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish" hisoblanadi. Ushbu bandida berilgan 44-maqсад "Maktablarda ta'lif sifatini oshirish, pedagog-kadrlarning bilimi vamalakasini xalqaro darajaga olib chiqish" hamda 46-maqсадida "Oliy ta'limga qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta'lif sifatini oshirish kabi masalalar alohida vazifa qilib ko'rsatilgan. Ushbu maqsadlardan kelib chiqqan holda xalq ta'lifi xodimlarining asosiy vazifasi Prezidentimizning "Yangi O'zbekiston- maktabostonasidan boshlanadi!" degan ezgu shior ostida Yangi O'zbekistonga munosib farzandlarini tarbiyalash, aniqrog'i bilimli, salohiyatli, kuchli, vatanparvar, milliy iftihor tuyg'ulari jo'sh urib turgan bozor munosabatlari sharoitida

erkin faoliyat ko'rsata oladigan, raqobatbardosh yosh avlodni kamol toptirishdir. Aynan, maktab ta'limga ham interfaol metodlardan foydalanib o'qitishning dolzarbliji ham shundadir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

X.B.Nikadambayeva, D.I.Ro'ziyeva, Z.A.Karabazov "O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi"ni interfaol metodlardan foydalanib o'qitish imkoniyatlari uslubiy qo'llanmasida Amerikalik psixolog olimlar R.Karnikau va F.Makelrouning o'rganishlariga ko'ra shaxsning tabiiy fiziologik-psixologik imkoniyatlari muayyan shakkarda o'zlashtirilgan bilimlarni turli darajada saqlab qolish imkonini beradi. Unga ko'ra o'quvchi O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi kursining O'zbekistonning regional tavsifi bobining mavzularini o'zi o'qiganida 10 %, mavzuga doir ma'lumotni o'qituvchidan eshitganida 20 %, mavzuga oid turli xil videoroliklar, reportajlar va boshqalarni ko'rganida 30 %, mavzuga oid bo'lgan videoroliklar, reportajlarni ko'rib, o'qituvchi tomonidan tushuntirib berilganda 50 %, mazkur ma'lumotlarni tengdosh o'quvchisiga o'zi uzatganida 80 %, o'zlashtirilgan bilimlarni o'zining darsga tayyorgarlik jarayonida qo'llaganda 90 % hajmdagi ma'lumotlarni yodda saqlash imkoniyatiga ega.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda quyidagi masalalarga o'tamiz.

Andijon - O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi viloyat, shahar va tuman nomi. Andijon nomining kelib chiqishi haqida turli xil rivoyat va afsonalar mavjud. Ayrim mutaxassislar shahar nomi malika Andukon ismidan olingan yoki «ozodagon» va «mardon» so'zidan («ozodlar shahri», «mardlar shahri») hosil bo'lgan deb izohlaganlar.

Farg'ona - 1924-yildan boshlab shahar Farg'ona nomi bilan mashhur. Ko'rindiki, shahar uzoq tarixga ega bo'lmasa ham, ammo nom uzoq tarixga ega. Taniqli nomshunos olim H.Hasanov Farg'ona so'zining etimologiyasiga oid o'ndan ortiq talqinni keltirgan va ularning birontasini ham qat'iy izoh deb hisoblamagan. Ular orasida vodiyning geografik o'rni bilan bog'liq va qadimiy so'g'd tiliga tegishli parkona - «har tarafi tog», bir yog'gina ochiq bo'lgan vodiy», «atrofi berk vodiy» so'zi Farg'ona nomiga asos ho'lgan degan izohni haqiqatga yaqin desak bo'ladi. Tarixchi A.Xo'jayev milodiy VI asrgacha yozilgan xitoy manbalaridagi ma'umotlami chuqr o'rganib qadimiy Farg'ona mamlakati bilan uning ilk poytaxtining nomi bir xil bo'lganligi va ular xitoycha atrofi tog'lar bilan o'ralgan tekislik ma'nosini bildiruvchi bitta Yuan ieroglifi bilan ifodalanganligini aniqlagan. Olimning yozishicha, chalkashliklarning oldini olish maqsadida qadimgi xitoy tarixchilari mamlakat nomiga day - «buyuk, katta» so'zini qo'shish orqali uni Dayyuan - Buyuk Farg'ona yoki Katta Farg'ona deb atashgan.

XULOSA.

Jahonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi kursining jahonning siyosiy xaritasi mavzusida joy nomlaridan foydalanib o'qitishda foydalanilsa, o'quvchilarda Vatanga muhabbat, o'z atrofidagi vaqeа-xodisalarga nisbatan munosabat bildira oladigan komil inson bo'lishiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. S.Qorayev Topinimika O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'llim vazirligi Muvofqlashtiruvchi Kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent — 2006
2. Zohid Madrahimov. Tarixiy toponimika. «Navro'z» nashriyoti Toshkent 2017.- 128 b
3. M. T. Mirakmalov SH. M. Sharipov M. M. Avezov M. T. Hojiyeva 7-sinf Materiklar va Okeanlar tabiiy geografiyasi
4. X.B.Nikadambayeva, D.I.Ro'ziyeva, Z.A.Karabazov "O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi"ni interfaol metodlardan foydalanib o'qitish imkoniyatlari.Toshkent-2017. -224 b

10-SINF JAHONNING IQTISODIY VA IJTIMOIY GEOGRAFIYASINING YEVROPANING GEOGRAFIK O'RNI, CHEGARALARI VA SIYOSIY XARITASI MAVZUSIDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH

Arabboyev Asliddin Rafiqjon o'g'li

Andijon davlat universiteti, Tabiiy fanlar fakulteti

+998901403566

Annotation

Bizga ma'lumki, hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan asrda pedagogdan o'z ustida ishslash, izlash yangi metodikalar topishni taqozo qiladi. Ushbu maqolamiz bilan biz sizlarga 10-sinf jahonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasining Yevropaning geografik o'rni, chegaralari va siyosiy xaritasi mavzusida interaktiv metodlardan foydalanish bo'yicha kerakli taklif va tavsiyalarimizni berib o'tamiz.

Kalit So'zlar: KBI ("Kuzatish, baxslashish, ishontirish") strategiyasi, "Baliq skeleti" strategiyasi, Debat metodi

KIRISH

Ta'lim sifatini oshirish borasida qator qarorlar qabul qilinmoqda. Shuningdek, yangi maktablar bunyod etilib, bir qancha maktablarda qaytadan rekonstruksiya ishlari olib borilyapti va sind xonalari jahon talablariga mos ravishda jihozlanyapti, qolaversa, - "O'qituvchi" maqomi yanada yuksaltirilmoqda.

Bunga yaqqol misol sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 5-sentabr kuni - "O'qituvchi maqomi to'g'risida"gi qonun loyihasini ishlab chiqish bo'yicha qaror imzolaganligini keltirish joizdir. Barchamizga ma'lumki, har bir o'qituvchi oldidagi muhim vazifa bu yosh avlodga sifatli ta'lim berishdir. Yuqoridaqlarga monand ravishda 2023-yil yurtboshimiz tomonidan "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb e'lon qilinishi ham ta'limga bo'lgan e'tiborning na'munasi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR T AHLILI VA METODOLOGIYA

10-sinf Jahonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi darsligi mualliflari V.N.Federko, N.I.Safarova, J.A.Ismatov, Y.E.Nazaraliyevalar yozishgan bo'lib, ushbu darslik zamon talablariga javob beradigan darajada qilib tayyorlangan.

Jahonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasiga juda ko'plab adabiyotlarni, o'quv-uslubiy majmualarni qo'shimcha adabiyotlar safiga kiritilsa bo'ladi.

10-sinf geografiya darsligi yordamida zamonaviy dunyo, uning yirik mintaqalari hamda xalqaro iqtisodiy va siyosiy tizimda muhim o'rinnegallagan davlatlarga xos ijtimoiy-iqtisodiy geografik xususiyatlari o'rganiladi.

Darslikning asosiy maqsadi o'quvchilarga jahon, uning yirik mintqa va mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasiga doir zamonaviy bilim berish, mustaqil bilim olish va uni amaliyotda qo'llashdan iborat.

Darslik ikki qismdan iborat "Umumiy geografik tavsif" va Jahonning regional tavsifi" bo'limlaridan iborat.

NATIJALAR

Adabiyotlarni tahlil qilish davomida taniqli metodist olimlar shuni isbot qiladilar, o'quvchi yoki talaba manbani o'zi o'qisa 10 %, ma'lumotni eshitib o'rgansa 20 %, sodir bo'lgan voqe, xodisa yoki jarayonni ko'rib, ular to'g'risida ma'lumotlarni eshitganida 50 %, ma'lumotlarni o'zi tengdoshiga uzatganida 80 % o'zlashtirilgan bilimlarni faoliyatiga tatbiq etganida 90 % hajmdagi ma'lumotlarni xotirasida saqlash imkoniyati mavjud ekanligi haqida isbotlaganlar.

10-sinf jahonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasining Yevropaning geografik o'rni, chegaralari va siyosiy xaritasi mavzusida interaktiv metodlardan foydalanish metodlarini birma-bir ko'rib chiqamiz.



I.KBI ("Kuzatish, baxslashish, ishontirish") strategiyasi.

Strategiya o'quvchilarni hayotda o'z o'rnini toppish yo'lida faollik ko'rsatishga rag'batlantirib, ularda yetakchilik, sardorlik sifatlari, jamoada ishlash ko'nikmalari, o'zgalar fikrini xurmat qilgan holda o'z pozitsiyalarini himoyalash, fikrini isbotlay bilish, asoslash, ishontirish, munozara olib borish, murosaga kelish, ijodiy izlanish kabi qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu mashg'ulotda mazkur strategiyani qo'llashda quyidagi shartlarga rioya etiladi:

- 1.O'quvchilar texnologiya qo'llaniladigan mashg'ulot va mavzudan avvalroq xabardor qilinadi.
- 2.Vazifalarni bajarish uchun belgilanadigan aniq vaqt mavzu mazmuni, murakkablik darajasiga ko'ra belgilanadi.

3. Metodning baxs-munozaraga asoslanishi, aniq o'tkazilish vaqtiga tartibiga egaligi yodda tutiladi.

Mazkur strategiyadan foydalanish tartibi quyidagicha:


- O'qituvchi o'quvchilarini 10-sinf jahonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasining Yevropaning geografik o'rni, chegaralari va siyosiy xaritasi mavzusida mashg'ulotlarni o'tkazish tartibi bilan tanishtiradi.
- O'qituvchi o'quvchilarini kichik guruhlarga biriktirib, ularga savollar to'plamini taklif etadi va topshiriqni bajarish vaqt hajmini belgilaydi.

Savollar quyidagicha bo'lishi mumkin:

- Yevropa so'zi qadimgi ossuriyaliklar tilidan kelib chiqqan bo'lib, qanday ma'noni bildiradi?
- Yevropa ekvatorga nisbatan qaysi yarimsharda joylashgan?
- Yevropa qit'asining maydoni qancha?
- Yevropaning hozirgi siyosiy xaritasida nechta mustaqil davlat mavjud?
- Yevropa qit'asidagi nechta davlatning maydini 50 ming km² dan kichik?
- Qit'adagi nechta davlatning maydoni 50 ming km² dan 100 ming km² gacha boradi?
- Vaqt hajmi bitta savolga 2 minutdan bo'lishi mumkin.
- Guruqlar yuqoridagi bittadan savolni tanlov olib, so'zga chiqishga tayyorlanadi.
- Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, navbat bilan guruhlarning chiqishi tashkil etiladi.
